


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

SOBIROVA DILRABO RAJABBAYEVNANING

5220100 – FILOLOGIYA (O'ZBEK TILI) TA'LIM YO'NALISHI
BO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O'ZBEK VA TURKMAN ADABIY ALOQALARIDA

ANDALIB IJODINING O'RNI

Ilmiy rahbar:

A handwritten signature in dark ink, appearing to read 'Dilrabo'.

dots. PIRNAZAROVA M. M.

A handwritten signature in dark ink, appearing to read 'M. M. PIRNAZAROVA'.


Urganch 2015-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya va san‘at fakulteti

O‘zbek adabiyoti kafedrası

O‘zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o‘rni

Bajaruvchi: Sobirova Dilrabo Rajabbayevna 

Rahbar:  dots. Pirnazarova Manzura Matnazarovna

Urganch 2015

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya va san'at fakulteti

O'zbek adabiyoti kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba: Sobirova Dilrabo Rajabbayevnaga

Universitet rektorining «20.10.2014»-sonli 13.10.2014 buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "O'zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o'rni" mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan dots. Pirnazarova Manzura Matnazarovna bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Andalib asarlaridan olindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2014-yil, oktabr
2	Bitiruv-malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishish.	2014- yil, dekabr
3	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o'rganish	2015-yil, yanvar
4	O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish,	2015- yil, yanvar
5	Yig'ilgan materiallarni tizimlashtirish, kartochkalar tuzish	2015- yil, fevral
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o'rganish	2015- yil, fevral
7	To'plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2015- yil, mart
8	Ishni birinchi bobini yozish	2015- yil, mart

9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2015- yil, aprel
10	Ishning xulosa qismini yozish	2015- yil, aprel
11	Adabiyotlar ro'yxatini yozish	2015- yil, aprel
12	Ishni rahbarga tahrir qilish uchun taqdim qilish	2015- yil, may
13	Ishning dastlabki himoyasi	2015- yil, may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: dots. Pirnazarova Manzura Matnazarovna *Manzura*


Bajaruvchi talaba: Sabirova Dilrabo Rajabbayevna

2015 yil « 3 » *sentabr*

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014- yil tasdiqlandi

(« 2 »- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: dots. D. Q. G'ayipov


(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARNING MULOHAZALARI

Talaba: Sobirova Dilrabo Rajabbayevna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O'zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o'rni.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 58 sahifadan iborat.

Tushuntirish qismi: 46 sahifadan iborat.

Ilovalar soni: yo'q.

Mavzuning dolzarbligi: Andalib she'riyatiga qiziqish O'zbekistonda jamiyatda, tuzumda qanday siyosat va mafkura hukmron bo'lishiga qaramay, hech qachon pasaygan emas. Shoir siymosini qalblarga abadiy muhrlash, badiiy merosini xalqimiz tafakkuriga quyiroq singdirish maqsadida shoir va yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar turli janrlarda rang-barang asarlar yaratdilar, tarjimonlarimiz faol va samarali ijodiy mehnat qildilar.

Umuman olganda, turkiy xalqlar o'rtasidagi adabiy aloqalarni o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridandir. Shu ma'noda, Andalib va o'zbek adabiyoti masalasini o'rganish, shoir lirikasini tipologik tahlil qilish, umuman olganda, har ikkala xalq o'rtasidagi chambarchas adabiy aloqalarni o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi. Sabirova Dilrabo bitiruv malakaviy ishlarni yozish jarayonida o'zbek va turkman adabiyoti, xususan, o'zbek mumtoz adabiyot bo'yicha yaxshi bilimga ega ekanligini namoyon qilgan. An'ana va mahorat masalalarini puxta o'rganishga harakat qilgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari. Sobirova Dilrabo bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida mavzuga doir adabiyotlar bilan yaxshi tanishgan. Ularni tahlil qila olgan. Ilmiy-nazariy fikrlar asosida xulosalar chiqara olgan. Shoir Nurmuhammad Andalibning deyarli barcha asarlarini sinchiklab o'rgangan. Shuningdek, adabiyotshunos olimlarning adib ijodi borasidagi tadqiqotlari


bilan ham jiddiy shug'ullangan va o'zining iqtidorini namoyish qila olgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ushbu kichik tadqiqot ishida Andalibning an'anaviylik asosida o'sa borib, o'ziga xos mavqega ega bo'lgan shoir darajasiga ko'tarilganiga diqqat qaratiladi. Shuningdek, shoir ijodidagi uslubiy jihatlar va izlanishlar, o'zbek va turkman she'riyati taraqqiyotida shoir lirikasining o'rni e'tirof etiladi.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi. Sobirova Dilrabo Rajabbayevnaning "O'zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o'rni" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining bitiruv malakaviy ishlarga qo'yilgan talablariga to'la javob beradi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin.


Bitiruv malakaviy ishni ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:



dots. M. M. Pirnazarova

2015 yil « 2 » may _____



Urganch davlat universiteti filologiya va san'at fakulteti

filologiya (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Sobirova Dilrabo Rajabbayevnaning

bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: O'zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o'rni

Malakaviy ishning hajmi: 12000 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 46 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: yo'q.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Shoir Nurmuhammad Andalib ijodi o'zbek va turkman adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega. Uning she'rlari va dostonlari turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga o'ziga xos hissa qo'shgan. Shoir asarlarining badiiy xususiyatlarini o'rganish tadqiqotchidan juda katta bilim talab etadi. Sobirova Dilrabo bu dolzarb mavzu asosida ish olib borgan va qo'yilgan masalalarni ochishga harakat qilgan.

Bitiruv malakaviy ishning "Kirish" qismi, ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Tadqiqotning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilishi, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi kabi masalalar o'z yechimini topgan. Shuningdek, boblarda she'r va dostonlarining mavzu doirasi, badiiyati xususida to'xtalib o'tilgan. Tadqiqotchi talaba bitiruv malakaviy ishida shoir ijodining o'ziga xosligi, asarlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik ma'naviy-ruhiy omillar masalalarini yaxshi yorita olgan. Shuningdek, Andalibning dostonchilikdagi o'ziga xosligini poetik va uslubiy tahlil orqali ko'rsata olgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar va fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o'rinli foydalanilgan. Tadqiqotchi o'z ishida ilmiy-nazariy, badiiy adabiyotlarga asoslanib

ishning mazmunini ochib beradi. Nurmuhammad Andalib ijodining o'ziga xos xususiyatlari, hamda g'azal va dostonlarida shoirning g'oyaviy niyatini o'rganish, badiiy matndagi nutq shakllarining adib uslubidagi roli ko'rsarib o'tilgan. Sabirova Dilrabo Rajabbayevna ishda Andalib ijodiga Navoiy va Mashrabning ta'siri xususida so'z yuritadi.

Mazkur ishda adabiyotshunoslardan turkman olimlari A. Meredov, A. Bekmurodov, N. Gullayev, E. B. Muhammedova, A. Amirov, Qoraqalpoq olimi K. Quramboyev, o'zbek adabiyotshunos olimlaridan K. Tohirov, Y. Yusupov, V. Abdullayev, F. Musomammedovlarning izlanishlari va boshqalarning keyingi davrdagi ilmiy tadqiqot ishlaridan, internet ma'lumotlaridan unumli foydalanilgan.

Ilmiy-uslubiy va texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolarga deyarli yo'l qo'yilmagan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Bitiruv malakaviy ishda Nurmuhammad Andalib asarlari, g'azal va dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari, uslubiy izlanishlar, shoirning badiiy mahorati masalalari tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'tiladigan adabiyot darslarida, shuningdek, turkiy xalqlar adabiyoti fanini o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishdagi kamchiliklar: Ishda ba'zi kamchiliklar ham bor. Jumladan, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ba'zi ulmiy adabiyotlarning chop qilingan yili noto'g'ri ko'rsatilgan. Lekin bu ishning ilmiy qimmatiga putur yetkazmaydi. Tadqiqot talablar darajasida yozilgan bo'lib, bitiruv malakaviy ishini ijobiy baholayman.

Taqrizchi:

Urganch tuman 47-sonli Ayrim fanlar
chuqur o'rgatiladigan Davlat ixtisoslashtirilgan maktabning
oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Yaxshimurotova Feruza

(2015- yil) « 8 »

may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti filologiya (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Sobirova Dilrabo Rajabbayevnaning "O'zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o'rni" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning « » 2015 yil «12. iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan ball
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	9
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	30
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	9
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	8
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	3
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	2
7	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	9
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	8
Jami:			78

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. Sobirova Dilrabo Rajabbayevnaning
"O'zbek va Turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o'rni"
mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 78 ball lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va «yustui» deb baholansin.
2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 yil « » _____

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti "O'zbek adabiyoti" kafedrası
Bitiruv malakaviy ish 20 sonli tartib raqam bilan qayd
qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchi: Sobirova Dilrabo Rajabbayevna


Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: O'zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib
ijodining o'rni

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: Pirnazarova Manzura Matnazarovna

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015- yil « 12 » iyun da o'tkazilgan
majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Feruza Yaxshimurotova tayinlandi.

Kafedra mudiri:



dots. G'ayipov D.Q.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha
tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:



dots. Ishmurodov M.J.

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti o'zbek adabiyoti kafedrası
filologiya (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi

“Tasdiqlayman”

fakultet dekani

K.S.Niyazov

“ ” 2014-y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Sobirova Dilrabo Rajabbayevna

1. Ishning mavzusi: O'zbek va turkman adabiy aloqalarida Andalib ijodining o'rni
« 12 » 16.06.2014-yil universitet rektorining _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ 1 ” may 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

a) Nurmuhammed Andalip . “Turkmenistan ” nashriyoti , 1990

b) Andalip. Saylanan əsərlər. -Ashgabat: Turkmendavneshr, 1963.

v) Andalib. Lirikalar. -Ashgabat: Ўшм, 1976.

d) Abdullayev V. Saylanma. –T.:

G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.

g) Tahirov K . Turkman shoiri Andalib. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.

- Samarqand, 1965

4. Ishning maqsadi: Bitiruv malakaviy ish oldiga qo'yilgan asosiy maqsad
Nurmuhammad Andalib ijodiga mansub asarlarni tahlil etish asosida uning o'ziga xos
ijodiy uslub va badiiy mahoratini ko'rsatishdan iboratdir


5. Chizma materiallar ro'yxati:

6. Maslahatchilar: Pirnarzova M.

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
1. Kirish	dots. Pirnazarova M	2020.09.14	
2. 1-bob. O'zbekiston tashkiloti	dots. Pirnazarova M	2020.09.14	
3. 2-bob. O'zbekiston tashkiloti	dots. Pirnazarova M	2020.09.14	
4. 3-bob. O'zbekiston tashkiloti	dots. Pirnazarova M	2020.09.14	
5. 4-bob. O'zbekiston tashkiloti	dots. Pirnazarova M	2020.09.14	
6. 5-bob. O'zbekiston tashkiloti	dots. Pirnazarova M	2020.09.14	
7. Xulosa	dots. Pirnazarova M	2020.09.14	

Taqrizchi: Urganch tuman 47-sonli maktabning oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Yaxshimurotova Feruza

7. Ilmiy rahbar: dots. Pirnazarova Manzura Matnazarovna




BMI bajaruvchi talaba: Sobirova Dilrabo Rajabbayevna



(imzo)

Kafedra mudiri: dots. G'ayipov Dilshod Qadambayevich



(imzo)

REJA:

Kirish.....	3
I bob O‘zbek va turkman adabiyoti hamohangligi	
1.1-§ O‘zbek va turkman xalqlarining adabiy madaniy aloqalari.....	10
1.2-§ Andalib ijodiga Navoiy va Mashrabning ta’siri.....	19
1.3-§ O‘zbek adabiyotida Andalib an’analari.....	30
II bob Andalibning badiiy merosi	
2.1-§ Andalib lirikasi.....	37
2.2-§ Andalib mashhur dostonnavis sifatida	49
Xulosa.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	56

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek va turkman xalqlarining tarixi mushtarak. Tili, madaniyati, urf – odatlari o'xshash. Ajdodlarimizning ilmiy, adabiy va ma'naviy merosi xalqlarimizning umumiy mulki sanaladi. O'zbek va turkman azaldan taqdir sinovlari davrida biri-biriga yelkadosh bo'lib, shukuhli damlarda quvonchini baham ko'rib kelgan. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar mustaqillik yillarida yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarildi. Ajdodlarimizning ilmiy, adabiy va ma'naviy merosi xalqlarimizning umumiy mulki sanaladi. Shu ma'noda, o'zbek va turkman xalqi farzandi bo'lgan Andalib ijodiy merosini o'rganish, shoirning dostonnavislik mahoratini ko'rsatish, umuman olganda, har ikkala xalq o'rtasidagi chambarchas adabiy aloqalarni o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Zero, yurtboshimiz I.A.Karimov: "Bizning ko'p millatli Respublikamizda millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish muammosi eng dolzarb va o'tkir muammolardan biridir... Hozir gap ana shu sohaga taalluqli keng doiradagi masalalarni o'z ichiga oladigan ilmiy tadqiqotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish to'g'risida bormoqda."¹- deb to'g'ri ta'kidlagan. Tarix sahifalarini varaqlab ko'rsak eli-eliga, dili-diliga payvand bo'lgan turkman va o'zbek xalqlari qadim zamonlardan beri birodarlikda yonma-yon yashab kelayotganligining guvohi bo'lamiz. Tog'i ham, taqdiri ham bir bo'lgan o'zbek va turkmanlar go'yo bir kitobning ikki sahifasi desak yanglishmaymiz. Bu ikki xalq o'tmishda zulmga qarshi birgalikda kurash olib borganlar, ozodlik uchun janglarda birga qatnashganlar. O'zbek va turkman adabiy aloqalari uzoq tarixga egadir. Turkiy xalqlarning ko'pgina mushtarak merosining yaratilishida turkman va o'zbek bobokalonlari birga qatnashganlar. Turkman va o'zbek xalqlarining tillarida taraqqiy qilgan adabiyot muayyan mavzularning ishlanishida obrazlar tanlash, uslub va boshqa bir qancha holatlarda bir-birining tajribasidan unumli foydalanganlar. O'zbek va turkman adabiy aloqalari tarixi haqida so'z yuritir ekanmiz, bu aloqalar jarayonida Alisher Navoiyning nomi alohida ajralib turadi.

¹ Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011. -B.90

Soʻz mulkingning sultoni Alisher Navoiyning gumanistik gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgan sheʼriyati, poetik merosi turkman shoirlarining diqqatini oʻziga jalb qilgan. XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan turkman shoirlaridan Ozodiy, Nurmuhammad Andalib, Kamina va Mullanafas, Saidiy va boshqa shoirlar Alisher Navoiyni oʻzlariga ustoz bilib, uning gʻazallariga naziralar yozganlar, muxammaslar bogʻlaganlar. Navoiy turkman shoirlarining ham maʼnaviy ustози hisoblanib, turkman xalqining eski yozma adabiyoti taraqqiyotiga juda katta taʼsir koʻrsatgan. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston va Turkmaniston davlatlari oʻrtasida oʻrnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalardagi hamkorliklarda ibratli tadbirlar koʻzga tashlanmoqda. Oʻzbekiston Prezidenti, hurmatli Islom Karimovning Turkmanistonda bir necha marta davlat tashrifi bilan boʻlishi, Turkmaniston Prezidentining bir necha bor Oʻzbekistonga davlat tashrifi bilan kelgani va har ikki tomon oʻrtasida xalqlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatiga xizmat qiladigan bir qator hujjatlarning imzolangani madaniyatimiz va adabiy aloqalarning yanada mustahkamlanishida alohida ahamiyat kasb etdi. Bu siyosiy tadbir, jumladan, adabiyotlarimiz doʻstligi ramziga aylangan—Alisher Navoiy, Maxtumduli, Andalib va Mullanafasdek buyuk soʻz sanʼatkorlari ijodini har ikki adabiyotshunoslikda, keng doirada oʻrganishga yoʻl ochdi, tadqiqotlar yaratishga ilhomlantirdi.

Andalib sheʼriyatiga qiziqish Oʻzbekistonda jamiyatda, tuzumda qanday siyosat va mafkura hukmron boʻlishiga qaramay, hech qachon pasaygan emas. Shoir siymosini qalblarga abadiy muhrlash, badiiy merosini xalqimiz tafakkuriga quyiroq singdirish maqsadida shoir va yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar turli janrlarda rang-barang asarlar yaratdilar, tarjimonlarimiz faol va samarali ijodiy mehnat qildilar.

Umuman olganda, turkiy xalqlar oʻrtasidagi adabiy aloqalarni oʻrganish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridandir. Shu maʼnoda, Andalib va oʻzbek adabiyoti masalasini oʻrganish, shoir lirikasini tipologik tahlil qilish, umuman

olganda, har ikkala xalq o'rtasidagi chambarchas adabiy aloqalarni o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilishi. Turkman va o'zbek adabiy aloqalari, Nurmuhammad Andalib ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha o'rganilgan. Andalib hayoti va adabiy merosini dastlab mashhur venger olimi German Vamberi tomonidan o'rganilgan. 1867- yilda Germaniyaning Leypsig shahrida nashr etilgan. "Chig'atoy adabiyoti xrestomatiyasi" ga Andalibning "Sa'd vaqqos" dostoni kiritilgan. XX asr boshlarida professor A. Fitrat Andalib adabiy merosiga murojaat qilib, uning asarlaridagi ba'zi namunalarni o'zbek adabiyoti xrestomatiyasiga kiritgan. Umuman, Andalib ijodini o'rganish va targ'ib qilishda turkman-u o'zbek olimlarining tabiiy bir hamkorligi yuzaga kelgan. Andalibning boy badiiy merosini tiklash va xalqqa yetkazishda yetakchilik qilgan turkman olimlari A. Meredov, A. Bekmurodov, N. Gullayev, E. B. Muhammedova, A. Amirov, Qoraqalpoq olimi K. Quramboyev, o'zbek olimlaridan K. Tohirov, Y. Yusupov, V. Abdullayev, F. Musomammedovlarning izlanishlarida shoir haqida turkman va o'zbek kitobxonlariga muayyan ma'lumotlar yetkazishgan². Ammo hanuzgacha Andalibning purhikmat muxammaslari-yu, ko'lamdor dostonlari turkman va o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilgani yo'q. Biz mazkur ishimizda adabiyotshunos olimlarning ijodiy fikriga tayanigan holda Nurmuhammad Andalib ijodiy merosini imkon qadar tadqiq qilishga, shoir she'rlarining badiiy xususiyatlarini ochib berishga, qolaversa, adib dostonlarini o'rganishga harakat qildik.

XVIII-XIX asrlarda turkman adabiyotida yangi sahifa ochgan, uni taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'targan buyuk so'z san'atkori, mutafakkir shoirlardan birisi Nurmuhammad Andalib, uning hayoti va ijodi uch asrdan beri dunyo kitobxonlari, ilmiy-adabiy jamoatchiligi diqqatini jalb qilib, hayratga solib

² Abdullayev V. Saylanma. -Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. Quramboyev K. O'zbek va turkman adabiy aloqalari. - Toshkent. 1978. Koriyev B. Navoiy va turkman adabiyoti. // O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 1968. Tohirov K. Turkman shoiri Andalib. Filologiya fanlari nomzodlik diss. aforeferati. Samarqand, 1975. Yusupov Y. O't chaqnagan satrlar. -Toshkent, 1983.

kelayapti. Adabiy merosi jahon ma'naviy xazinasining ajralmas bo'lagi sifatida ajdodlardan avlodlarga o'tib, axloqiy tarbiya quroli, ilhom chashmasi vazifasini bajarmoqda. Ulug' shoir she'riyati ilmiy-tadqiqot manbaiga aylanganiga ham ko'p yillar bo'ldi. Bu o'lmas ijod bilan faqat turkman olimlarigina emas, jahonning ko'zga ko'ringan shoir va yozuvchilari, adabiyotshunos tanqidchilari ham shug'ullanib, salmoqli ilmiy ishlar, kitoblar nashr ettirgani ma'lum. Abdullayev V, Quramboyev K, Qoriyev B, Tohirov K, Yusupov Y kabi olimlar XX asrning boshlaridayoq Andalib asarlarining jahonshumul ahamiyati haqida maqolalar, tadqiqotlar yaratdilar.

Andalib asarlarini qiyosiy adabiyotshunoslik, o'zbek va turkman adabiyotlari bilan aloqada, ta'sir va o'ziga xoslik yo'nalishida tadqiq etilishi tarixiga nazar tashlasak, bu sohada katta yutuqlarga erishilganiga guvoh bo'lamiz. Shoir she'riyatini Markaziy Osiyo, jumladan, o'zbek adabiyotlari bilan qiyosiy o'rganishga XX asrning 50-yillarida kirishilib, matbuotda mavzuga doir ba'zi fikrlar aytilgan, maqolalar yozilgan bo'lsa-da, fundamental ilmiy-tadqiqotlar, asosan, 50-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'la boshladi³. Turkman olimlari bu ishda ancha faol bo'lganligini ta'kidlaymiz.

O'zbek adabiyotshunosligida Andalib ijodining o'zbek-turkman adabiy aloqalari aspektida ilmiy o'rganilishi masalasiga kelsak, bu jarayon serqirra, materiallarga boy bo'lmasa-da, har holda tilga olsa arzigulik ilmiy ishlar bor.

Tadqiqotlarning ko'pchiligida Andalib ijodi mumtoz adabiyot yoki folklorga bog'lab o'rganilgan. Adabiyotshunos olim K. Quramboyevning «O'zbek-turkman adabiy aloqalari»degan risola nashr ettirdi, respublika gazeta-jurnallarida maqolalari bosildi va ularda, asosan, shoir ijodining Xorazm adabiy muhiti bilan bog'liq sahifalari o'rganiladi. Baxshilar, xalfalar, xonandalar repertuaridagi Andalib she'rlarining ijro etilishi, Xorazmda shoir haqida

³ Abdullayev V. Saylanma. –T.: "G'afur F'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1982. Quramboyev K. O'zbek va turkman adabiy aloqalari. – Toshkent. 1978. Koriyev B. Navoiy va turkman adabiyoti. // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1968. Tohirov K. Turkman shoiri Andalib. Filologiya fanlari nomzodi diss. aforeferati. Samarqand, 1975. Yusupov Y. O't chaqnagan satrlar. –Toshkent, 1983.

- Adibning mashhur dostonnavislik faoliyatiga oydinlik kiritish;
- Andalibning ustoz adib sifatidagi mahoratini ochib berish;
- Shoir siymosi va an'analarining o'zbek she'riyatidagi tasvirini ko'rsatib berish;
- Shoir she'rlarining o'zbekchaga qilingan tarjimalari xususida fikr bildirish;
- Xalq shoirlari va xonandalari repertuaridagi Andalib mavzusiga e'tibor qaratish.

Tadqiqot obyekti. Andalibning o'zbek va turkman tilida nashr qilingan she'riy to'plamlari.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini Prezident I.Karimovning ma'naviyat va uning uzviy tarmog'i bo'lgan badiiy adabiyot borasidagi ko'rsatmalari, shuningdek, o'zbek va xorij adabiyotshunos olimlarining shoir ijodi haqidagi fikr-mulohazalari, badiiy mahorat masalalariga bag'ishlangan asarlaridagi nazariy xulosalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi adabiy va madaniy aloqalar haqida ma'lumot berishga harakat qildik. Tadqiqot obyektimiz bo'lgan Nurmuhammad Andalibning lirikasi, uning dostonnavislikka qo'shgan hissasi kabi masalalarga e'tibor qaratildi. Shoir she'riyatining mavzu va g'oyasi, shuningdek, Andalib ijodiga Navoiy, Fuzuliy va Mashrablarning ta'siri masalalariga o'z munosabatimizni bildirdik. Bitiruv malakaviy ishda o'zbek adabiyotida Andalib an'analarini o'rganishga, shu masaladan kelib chiqqan holda shoir ijodining mavzular ko'lami, o'zbek xalqi orasida mashhur bo'lgan shoir she'rlarini tahlil qilishga harakat qildik. Ishda quyidagi masalalar yoritildi:

- Nurmuhammad Andalib XVII asr O'rta Osiyoning eng mashhur va boy adabiy merosga ega bo'lgan shoirlardan biri ekanligiga e'tibor qaratildi.
- Andalib o'zining ajoyib asarlari orqali turkman adabiyoti tarixi bilan birga o'zbek adabiyoti tarixida ham munosib o'ringa egaligi ko'rsatib o'tildi;
- Adibning mashhur dostonnavislik faoliyatiga oydinlik kiritishga harakat qilindi;

to'qilgan rivoyatlar ham muallifning tadqiqot obyekti bo'ldi. Bular Andalib ijodini ilk marotaba o'zbek (Xorazm) adabiy muhiti bilan qiyosiy o'rgangan ilmiy izlanishlar sifatida ahamiyatlidir. R. Inog'omovning «Adabiy qardoshlik taronalari» (1972), Q. Toxirovning «Oktabrda avvalgi o'zbek-turkman adabiy aloqalari problemasiga doir» (1988) kitoblarida, V. Zohidov, V. Abdullaev, J. Sharipov, O. Sobirov, S. Mamajonov, S. Shermuhamedov, S. Mirzaev hamda boshqa ba'zi mualliflarning o'tgan asrning 60-yillarida e'lon qilgan ayrim maqolalarida mavzuga doir fikrlarni uchratish mumkin. Adabiyotshunos olim K. Quramboyevning «O'zbek-turkman adabiy aloqalari», «Ko'ngil bermish so'zimga», «Adabiy ta'sirdan ijodiy o'ziga xoslikka», «Adabiy jarayon, ijod mas'uliyati, adabiy aloqalar» nomli monografiyalari, maqolalari Andalib she'riyatining o'zbek va qoraqalpoq adabiy muhiti bilan bog'liq qirralarini tadqiq etishga bag'ishlangan edi. Mavzuning hali ochilmagan sahifalari, mutaxassislar e'tiboridan chetda qolib kelayotgan qirralari ham oz emas. Tilga olingan tadqiqotlarning ko'pchiligida Andalib ijodi mumtoz adabiyot yoki folklorga bog'lab o'rganilgan. Hozirgi o'zbek adabiyotida Andalib an'analari muvaffaqiyatli davom etayotgani, adabiyotning turli janrlarida shoir obrazi yaratilgan o'nlab badiiy asarlar paydo bo'lgani quvonarli holdir.

Tadqiqot maqsadi. O'zbek adabiyotida Andalib an'alarini o'rganish, shu masaladan kelib chiqqan holda shoir ijodining mavzular ko'lami, o'zbek xalqi orasida mashhur bo'lgan shoir she'rlarini tahlil qilish bitiruv malakaviy ishimizning bosh maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari. Andalib ijodiy merosini tadqiq qilish, shoir lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish, shoirning dostonnavislik mahoratiga oydinlik kiritishdan iboratdir. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim bo'ladi:

- O'zbek va turkman adabiy aloqalarining chambarchas bog'liqligini ochib berish;
- Andalib badiiy merosini, shoir mahoratini ko'rsatish;

-Andalibning ustoz adib sifatidagi mahoratiga e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishimiz an'anaviy kirish, ikki mustaqil bob, besh fasl, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 58 sahifani tashkil etadi.

I bob O'zbek va turkman adabiyoti hamohangligi

1.1. O'zbek va turkman xalqlarining adabiy madaniy aloqalari

Tarix sahifalarini varaqlab ko'rsak, eli eliga, dili diliga payvand bo'lgan turkman va o'zbek xalqlari qadim zamonlardan beri birodarlikda yonma-yon yashab kelayotganligining guvohi bo'lamiz. Tolei ham, taqdiri ham bir bo'lgan o'zbek va turkmanlar go'yo bir kitobning ikki sahifasi desak yanglishmaymiz. Bu ikki xalq o'tmishda zulmga qarshi birgalikda kurash olib borganlar, ozodlik uchun bo'lgan janglarda birga qatnashganlar. O'zbek va turkman adabiy aloqalari o'zining uzoq tarixiga egadir. Turkiy xalqlarning ko'pgina mushtarak meroslarining yaratilishida turkman va o'zbek bobokalonlari birga qatnashganlar. Turkman va o'zbek xalqlari tashkil topishi bilan bu tillarda taraqqiy qilgan adabiyot muayyan mavzularning izlanishida obrazlar tanlash, uslub va boshqa bir qancha holatlarda bir-birining tajribasidan unumli foydalanganlar.

O'zbek, turkman – bir do'g'on, bir tug'ishgan

Tarix degan bir maktabda o'qishgan.

Daryolardek qadim bizning yo'ldoshlik,

G'oyat qutlug' udum do'stlik, qardoshlik.

Turkman-o'zbek bir daryodan suv ichdi,

Kurashlarda dovon oshdi cho'l kezdi,

Qovushgandek Orolning dengizida,

Sirdaryo Amudaryo abadiy,

Ikki xalqning yo'llari ham shu taxlit

Bir tolening bag'rida birlashadi.

degan edi taniqli o'zbek shoiri Maqsud Shayxzoda "O'zbek, turkman- bir do'g'on, bir tug'ishgan" nomli she'rida.⁴ O'zbek adabiyotining Lutfiy va Navoiy, Bobur va Mashrab, Muqimiy va Furqat kabi namoyondalari turkman kitobxonlariga yaqin bo'lgani kabi Ozodiy, Andalib, Mullanafas, Kamina va Saidiy singari turkman qalam sohiblarining asarlari o'zbek muxlislari o'rtasida ham keng tarqalgan. Bizga ma'lumki, uzoq tarixga nazar tashlasak, O'rta Osiyodagi barcha xalqlar qatori urf-odati, tili, madaniyati ko'p jihatlari bilan bir-biriga o'xshash bo'lgan, bir maqsad, bir orzu bilan hayot kechirgan o'zbek va turkman xalqlarining taqdiri ayanchli bo'lgan. Ayniqsa, o'z zamonasining ongli, hur fikrli kishilari, shoir va olimlari, san'atkorlarining qismati achinarli ahvolda edi. Ular uzoq asrlar davomida xonlar, beklar, feodallar va ruhoniylar zulmi ostida ezilib, og'ir hayot kechirganlar, har qadamda ta'qib qilinib iskanjaga olinganlar. Lekin boy feodallarning ashaddiy hukmronligi, har qanday zulm, adolatsizliklar bir-biriga juda yaqin bo'lgan tarixiy sharoitda yashab kelgan o'zbek va turkman xalqlarining hamdardlik va birodarligiga to'sqinlik qila olmadi. Ana shunday murakkab, og'ir sharoitlarda ham o'zbek va turkman shoirlari o'rtasidagi o'zaro ijodiy hamkorlik muntazam davom etib kelgan.

O'zbek va turkman adabiy aloqalari tarixi haqida so'z yuritar ekanmiz, bu aloqalar jarayonida Alisher Navoiyning nomi alohida ajralib turadi. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning gumanistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan she'riyati, poetik merosi turkman shoirlarining diqqatining o'ziga jalb qilib kelgan. XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan turkman shoirlaridan Ozodiy, Nurmuhammad Andalib, Kamina va Mullanafas, Saidiy va boshqa shoirlar Alisher Navoiyni o'zlariga ustoz bilib, uning g'azallariga naziralar yozganlar, muxammaslar bog'laganlar.

⁴ K. Qurambaev. O'zbek turkman adabiy aloqalari. Toshkent. 1978-yil. 6-bet

Navoiy turkman shoirlarining ham ma'naviy padari, ustози hisoblanib, turkmanlarning eski yozma adabiyoti taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Navoiy asarlarining turkman shoirlari ijodiy faoliyatida o'ynagan roli bebahodir. Andalib XIII asr turkman adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri bo'lib, o'zining ajoyib asarlari orqali turkman adabiyoti tarixi bilan birga o'zbek adabiyoti tarixida ham munosib o'ringa ega bo'lgan.

“Qoraqalpoq shoiri Berdaq: Kitob ko'rdim Andalibdan” deganidek, Nurmuhammad Andalib kitoblari: xususan, dostonlari to'g'ri hanuz turkman, o'zbek qoraqalpoq ellari uchun mumtoz saboq manbai bo'lib qolmoqda.

Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostoni bizgacha litografiya holida yetib kelgan bo'lsada, har holda o'sha nusxa vositasida shoir haqidagi mukammal mulohaza yuritish imkonini beradi. Bundan tashqari, shoirning g'azal muxammaslari kiritilgan bayoz va dostonlarni sinchiklab ko'zdan kechirganda Andalib o'z zamonasining ilg'or fikr egalaridan biri sifatida zo'r iste'dodli shoir ekani yaqqol ko'zga tashlanadi. G'azalnavis va dostonnavis, o'zbek, turkman, arab va fors tillarini chuqur bilimdoni, tarjimon Andalibning adabiy merosi bugun Toshkent, Ashxobod, Dushanbe, va Rossiyadagi Sharqshunoslik institutlarida saqlanmoqda.

XIX asr o'zbek shoirlaridan bir nechtasi Andalibga ergashganlar va ustoz sifatida undan namunalar olganlar. Andalib o'z zamonasining o'qimishli, donishmand kishilaridan bo'lgan. Shoir arab va fors tillarini ham yaxshi bilgan va bu tillarda tarjimalar qilish bilan shug'ullangan hamda Sharq adabiyotida yuksak o'rin olgan. Andalibning asarlari, bayozlari qo'lyozma shaklida yetib kelgan. 1940- yilda topilgan ma'lumotlar orasida Andalibning asl kelib chiqishi va adabiy merosi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Elning sevgan adibi bugun yana ellar va elatlar ardog'ida o'zining yangi mo'tabar va hur umrini o'tkazmoqda. Uning yodnomalari mustaqil o'lkalar mafkurasi va manaviyatining sarchashmalaridan bo'lib qolajakdir. O'tmishning

ma'lum girdobida inson baxtini kuylagan Andalib kabi xalqning asl farzandlari bizning zamondagina hurmatlandi va sharaf topdi.

XVII asr turkman adabiyotining taniqli namoyondalar biri Nurmuhammad Andalibdir. Andalib Xiva, Toshovuz turkmanlaridan bo'lgan. Andalib dastlab Toshovuz viloyatining Ilonli tumanidagi Qaramozi qishlog'ida yashagan, keyinchalik og'ir bir kasalga duchor bo'lganidan, o'zbeklar orasiga ko'chib borgan va Urganch Xiva atroflarida yashagan.

XVIII asrda Xorazmda yashab ijod qilgan Nurmuhammad Andalibning adabiy merosi har jihatdan o'rganishga arzigulikdir. Andalib taxallusi "arabcha" bo'lib, "bulbul" ma'nosini anglatadi. Darhaqiqat, Andalib poeziyada sevgi-sadoqatni bulbuldek yonib-kuyib tarannum qilgan xassos shoirlardan biridir.

Shoirning tug'ilgan yili xususida o'zbek va turkman adabiyotshunoslari tomonidan e'lon qilingan manbalarda turli sanalar ko'rsatiladi. Bu masalada shoirning o'zi "Yusuf va Zulayho" dostonida quyidagicha ma'lumot beradi:

Ismim edi Nurmuhammad g'arib,
So`zda taxallusim edi Andalib.
Shahrimiz Urganch viloyat edi,
Xonimiz Shohg`ozi ximoyat edi...
Bo`yla Qaromozi erur joyimiz
Zikri Xudo ishq ila dilxohmiz...
Asli makonimki Qaromozidur
Odami ishratda qishu yozidur.

Agarda ushbu ma'lumotlarga asoslansak, shoirning Shohg`ozixon davrida yashaganligi ma'lum bo'ladi. Shohg`ozixon Xivada 1764-1766 yillarda hukmronlik qilgan. Andalib yuqoridagi muqaddima she'rning oxirida yana quyidagi misralarni yozadi:

Barcha xaloyiq ichida bad ishim,

Yetdi ellik beshga mening bu yoshim.

Mazkur asar 1756-1766 yillarda yozilgan. U o'sha paytlarda 55 yoshda bo'lsa, taxminan 1710-1711 yillarda tug'ilgan bo'ladi. Vafoti esa 1770-yilga to'g'ri keladi.

Turkman olimlaridan A.Meredov va S. Axallilar ham shoirning yashab o'tgan davrini 1711-1770 yillar deb ko'rsatishadi¹.

Biroq, Andalibning 1991-yilda Ashxobodda nashr etilgan kitobida "Yusuf va Zulayho" muqaddimasidagi misralar sal boshqacharoq tarzda beriladi:

Ismim idi Nurmuxammet garip,

Sözde taxallusim idi Andalip.

SHəxrimiz Urgench velayat idi,

Xanimiz Shirgazi xemayat idi.

Aslq mekanim ki Garamazidir,

Adami eshretde gishu-yazidir.

Barcha xalayqk ichinde bad ishim,

Etip ellik bəshge meniñ bu yazim².

Mazkur matnda xonning ismi negadir Sherg'oziy shaklida berilgan. Kitobni nashrga tayyorlovchilar shu sababli Andalibning Shohg'ozixon emas, balki Sherg'ozixon davrida yashab o'tganligini qayd qilib, uning tug'ilgan yili va vafotini 1660-1740-yillar deb belgilashadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek adabiyotshunoslari shoirning "Yusuf va Zulayho" dostoni matnini O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondidagi qo'lyozma asosida o'qib, muayyan xulosaga kelishgan. 1991-yilda chop etilgan turkmancha nashrdagi Sherg'oziy ismining qayerdan olinganligi noma'lum. Balki, matn xato o'qilgan bo'lishi mumkin.

¹ Мередов А. Ахаллы С. Туркмен классыкы эдебиятының сөзлуги. Ашгабат, «Туркменистан» 1988. –С. 27.

² Андалып. Ашгабат, «Туркменистан», 1991. –С.126.

Andalibning tug'ilgan joyi muqaddimada Urganch viloyati, Qoramozi qishlog'i tarzida berilgan. Bu ma'lumotning ham qaysi Urganch va qaysi Qoramozi qishlog'i ekanligi noma'lum. Chunki shoir yashagan davrda Ko'hna Urganch bilan birga XVII asrda asos solingan yangi Urganch ham bor edi. Ko'hna Urganchdan deyarlik 100 kilometr janubiy sharqda joylashgan Ilonli mavzeida ham Qoramozi qishlog'i bo'lgan. O'z navbatida, yangi Urganchdan 10 kilometr sharqda joylashgan yana bir Qoramozi qishlog'i ham bor edi. Bu qishloqlarning har ikkalasi hozirda ham mavjud.

Andalibning o'z asarida qayd qilgan joylarining Ko'hna Urganch yoki yangi Urganch ekanligini aniqlash murakkab masaladir.

Shoir ijodi keng ko'lamli bo'lib, ko'plab she'rlari, dostonlari bizgacha yetib kelgan. Uning ijodini dastlab o'rgangan va ommalashtirgan sharqshunos German Vamberidir. Andalibning "Sa'd Vaqqos" asari nemis tiliga tarjima qilinib, 1867-yilda Leyptsigda chop etilgan. Uning "Yusuf va Zulayho" dostoni 1904-1912-yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Kogonda olti marotaba nashr etilgan. "Layli va Majnun", "Zaynularab" dostonlari ham toshbosmada ko'plab chop qilingan.

Andalib ijodi o'zbek olimlaridan Fitrat, Vohid Abdullaev, K. Quramboev, Q.Tohirov, rus olimlari L.Klimovich, Ye.E.Bertels, ozarbayjon olimlari X.G.Ko'ro'g'li, H.Orasli, Turkman olimlari G.Nazarov, B.A.Qarriev, A.Meredov, B.CHoriev, O.Qovshutov, M.Xidirov va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Andalibning ko'plab she'rlari O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondida 1198, 6973 raqamlarda saqlanadi. Bulardan tashqari yana 15 ta raqamli bayozlarda uning she'rlari mavjud bo'lib, hozirda bizga uning 35 ta she'ri ma'lum. Ularning hammasi 1200 misraga yaqin³. Bular orasida g'azal, muxammas, musamman, mustazod, murabba, muvashshah va taxmislar bor.

³ Ўзбек адабиёти тарихи, III том, -Т.: Фан, 1978. -Б.339.

Shu narsani ham ta'kidlash kerakki, Andalib taxallusli shoirlar turkiy adabiyotda anchani tashkil qiladi. Jumladan, bu so'z Nurmuhammaddan tashqari Xo'ja Nosir (XVII-XVIII asrlar), Mir Taqiy bin Al-Husayn-al-Hasani Koshoniy (XIX asr), Muhammad Husaynixon (XIX asr), Andalib Garachadog'iy (XVIII asr oxiri, XIX asr boshlari), Andalibi Tabriziy, Andalibi Istambuliy, Andalibi Qastimoniy kabilarga ham taxallus vazifasini o'tagan. XIX asr o'zbek adabiyotiga mansub bo'lgan, "Shohnomai devona Andalib" asarining muallifi ham shular jumlasidandir.

Biz so'z yuritayotgan Andalib ham taxallusini "Andalib G'arib", "Andalibi benavo", "Bechora Andalib", "Andalibi balokash" kabi turlicha shakllarda qo'llagan.

Andalibning yuqorida biz qayd qilgan raqamlardagi asarlari Xorazmda ko'chirilgan. Andalib Xiva madrasalarida tahsil olgan, o'z davrining ma'rifatli, madaniyatli, bilimdon kishilaridan bo'lgan. Turkiy va forsiy adabiyotning yirik namoyandalaridan bo'lgan Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Nasimiy, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi shoirlar ijodiga oid asarlarni sevib o'qib o'rgangan. Uning ijodining muhim qirralaridan biri o'sha davr mehnat ahlining real hayotini tasvirlashdir. SHoirning "Chiqir" she'ri bunga misol bo'la oladi. Bu she'rda shoir yashagan davrdagi Xorazm hayoti, dehqonchilik mashg'ulotiga oid turli lavhalar, don ekinlari, meva-sabzovot nomlari, gullar tilga olinadi:

...Kashiru kunjut, zig'ir, sholi ajoyib osh bo'lur,
Jo'xorini ko'p eking, oning xurushi mosh bo'lur.
Ehtiyot aylang, yoronlar, bo'lmasin vayron chig'ir.
Ham uzum paydo bo'lur, anjir ham zardolular.
Olma, kishmish, xarbuzu tarbuz, qaro olular,
Pistalar, anorlar, nashvotiyu shaftolular,
Savsanu sunbul, qizil gul, ochilib gul-lolalar,
Ushbu gullarni ko'rub, chandon bo'lur maston chig'ir.

She'rdan ma'lum bo'ladiki, Andalib yashagan davrda Xorazmda dehqonchilik, bog'dorchilik keng rivojlangan. Ammo, feodalizm davridagi qoloqlik hukm surgan, sug'orish ishlari, asosan, chiqirga o'xshagan ibtidoiy ish qurollari yordamida amalga oshirilgan.

Andalib ijodining salmoqli qismini uning epik asarlari tashkil qiladi. U o'z hayoti davomida "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho", "Boboravshan", "Zaynularab", "Sa'd Vaqqos", "Qissai "Firgun" kabi dostonlarni yozdi. Andalibning asosiy xizmatlaridan biri shuki, u xalq ijodiyoti bisotidagi turli afsona va rivoyatlar negizida xalq dostonlari uslubida nasr va nazm aralash epik asarlarni birinchi bo'lib, yozma adabiyotga olib kirdi. Andalibgacha yozilgan "Tohir va Zuhra", "Yusuf va Zulayho" kabi ko'plab dostonlar faqat nazmda yozilgan edi. Andalibning ushbu dostonlari qissaxonlar repertuariga o'tib, keng omma orasiga tarqalib ketdi. Bu anhana hozirda ham davom etmoqda. Xorazmdagi qissaxon xalfalar shoirning "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun" kabi dostonlarini hozirda ham o'qib, targ'ib qilib kelmoqdalar.

Yuqoridagi nomlari ko'rsatilgan dostonlarning "Sa'd Vaqqos"dan boshqa barchasi turkman tilida chop etilgan.

"Sa'd Vaqqos" dostoni diniy ruhda bo'lib, nazmda murabba' shaklida yozilgan. Uslub jihatdan Ahmad Yassaviy she'rlariga hamohang keladi.

Sa'd Vaqqos Yusuf Hamadoniy, Sulton Vays, Ismomut ota kabi shayxlardan bo'lib, uning nomi bilan bog'liq muqaddas ziyoratgoh Urganch shahri markazida joylashgan. Bu ziyoratgoh xalq orasida Doshqinjon bobo nomi bilan tarqalgan.

"Sa'd Vaqqos" dostonidagi she'rlar pand-nasihat xarakteriga ega. Ularda saxiylik, mehru shafqat, ezgulik ulug'lanadi:

Mo'min bo'lsang zinhor saxovat ayla,

Odami mo'minga kifoyat ayla,

G'ariblarga mehru shafokat ayla,

Yomon qulga Tangri jazo ayladi.

Andalib bu asarini umrining oxirlarida yozgan bo'lsa kerakki, unda umidsizlik kayfiyatlari sezilib turadi.

Umring oxir bo'ldi, so'rsa Andalib,
Itoat birla rang-ro'ying sarg'ayib,
O'lum changaliga bo'lursan g'arib,
Barchani (bu) o'lum fano ayladi.

Andalib, iste'dodli shoir, mohir dostonnavis bo'lish bilan birga yaxshigina tarjimon hamdir. U fors tilidan "Mirzo Hamdam" dostonini turkiyga o'giran. Bu asar 1905-yilda Kogonda toshbosmada chop etilgan.

Shoir bu she'rni "Yusuf va Zulayho" dostoni tarkibiga kiritgan:

Bu kulbai ehsona xurshidi jahon keldi,
Go'yoki o'lik erdim jismim aro jon keldi,

Misralari o'sha tarjima asariga tegishlidir. Bu she'r goh Andalib, goho Ojiza ijodiga nisbat berilib, Xorazmdagi barcha xalfalar, ko'plab xonandalar repertuaridan joy olgan va hozirda ham o'z mashhurligini saqlab kelmoqda.

Binobarin, Andalib ijodini o'zbek adabiyotshunosligida ham o'rganish, uning Xorazm adibiy muhitidagi o'rnini belgilash, shoir ijodining xalqona ildizlarini yoritish dolzarb masalalardan biridir.

1.2. Andalib g'azaliyotiga Navoiy, Fuzuliy va Mashrablarning ta'siri.

Nurmuhammad Andalib Navoiy ijodiga katta ixlos qo'ygan va Navoiy g'azallarini, dostonlarini yaxshi bilgan, ulardan ijodiy foydalangan. Andalib so'z san'ati sirlarini egallashda Alisher Navoiyni ko'pgina asarlaridan ilhomlanib ajoyib asarlar yaratgan va Navoiyning ijodiy tajribalariga ko'proq tayanishga harakat qilgan. Shoir Navoiyning o'n yetti g'azaliga muxammas bog'lab, yuksak iste'dod egasi ekanligini ko'rsatadi.

Andalib g'azallarga muxammas bog'lar ekan Navoiyning har bir baytiga qo'shgan misralarida Navoiy g'azalidagi uslubni saqlaydi, vazn va qofiya mosligidan tashqari mazmun, fikrning bir-biriga uyg'unligini ham ta'minlaydi.

Andalib Navoiy gʻazalidagi gʻoyalarni davom ettirishga va rivojlanishiga alohida eʼtibor beradi. Navoiy gʻazaliyotining eng yuksak namunalari hisoblangan “Kelmadi”, “Oʻltirgusi”, “Oʻn sakkiz yoshindadur” radifli gʻazallari yuksak sanʼat asarlari jumlasiga kiradi. Bu gʻazallarning bosh mavzusi sevgi, samimiy muhabbat, vafo va sadoqatdir. Ularda insonning shodlik tuygʻulari bilan bir qatorda, uning muayyan sharoitdagi gʻam-alamlari, dard-hasratlari, judolik tuygʻulari ham yuksak badiiylik bilan ifodalangani uchun bu gʻazallar qalblarni toʻlqinlantiradi, chuqur taʼsir etadi. Navoiy “Kelmadi” radifli gʻazalida oshiqning tunlarini bedor oʻtkazib visol daqiqalarini intizorlik bilan haqida gapiradi. Lekin mashuqa bevafoqlik qiladi, kelmaydi. Shoir lirik qahramonning ana shu holatdagi ruhiy kayfiyatini kechinmalarini juda taʼsirli qilib bayon etadi.

NAVOIY

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulroʻ kelmadi,
Koʻzlaringʻa kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza- lahza chiqdim-u chekdim yoʻlida intizor,
Keldi jon ogʻzingʻa-yu ul shoʻxi badxoʻ kelmadi.
Orazidek oydin erkonda gar etdi ehtiyot,
Roʻzgorimdek ham oʻlgonda qorongʻu, kelmadi,
Ul parivash hajridinkim yigʻladim devonavor,
Kimsa bormu kim anga koʻrganda kulgu kelmadi.
Koʻzlaringdin necha suv kelgay deb oʻlturmang meni,
Kim bori kon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.
Tolibi sodiq topilmas, yoʻqsa kim qoʻydi qadam
Yoʻlgʻa kim avval qadam mashuqa oʻtru kelmadi.
Ey, Navoiy boda birla xurram et koʻngling uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qaygʻu kelmadi.

Andalib Navoiyning shu gʻazalidan chuqur taʼsirlanadi. Oshiqning dardini baland ehtiros bilan kuylagan misralarni tayanch sifatida oladi va unga yanada goʻzal misralar qoʻshadi. Andalib ham ustoz Navoiy kabi mahbubaning bevafoolidan zorlanadi, shikoyat qiladi.

Andalib :

Xam getirdi qamatim, peyvesti ebru gelmadi,
Xatti mushkefshanu, hali anbarinbu gelmedi,
Ruzgerim tiyre qilgan je di-gisu gelmedi,
Geje gelgumdir dibon, ol servi gulru gelmadi.
Goʻzlerimga geje don otguncha uyqu gelmedi,
Chiqgan ermeni azmi-jovlan qilgali ol shehivor
Azizin goʻrmek erur iki goʻzumga iftihor,
Ah, neyley, kim boʻlubdir eshk birle perdedar,
Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yoʻlida intizor,
Geldi jan ogʻzimga- u ol shuxi bedxu gelmadi.
Andalib- a,nala eylep , bigam et qonlun oyun,
Jami – sehbadr denis,gor,bayram et qonlun oyun,
Etmasen asib herges mohkim et qonlin oyun,
Ey Navoiy, bada birle xurram et qonlun oyun,
Ne uchunkim bada girgen uyge gaygu gelmadi.⁵

Mazmuni:

Gul yuzli sarvqomatim kechasi kelaman deb kelmadi.
Koʻzlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza yoʻliga chiqib, intizorlik tortdim,
Jonim ogʻzimga keldi-yu , ul feʻli yomon shoʻxim kelmadi.

⁵ Nurmuhammad Andalib . Ashgabat.1990.57-bet

Yuzi kabi oppoq oydinga o'zgalardan o'zini ehtiyot qildi, deyin desam, hayotimdek tun tim bo'lganida ham kelmadi. Parivashim ayrilig'ida shunchalik telbalardek yig'ladimki, ko'rgan odamlarning birortasi o'zini kulgidan tiyolmadi. Qachongacha ko'zlaringdan suv oqadi?-deb meni uyatdan o'ldirmang. Oqqan ko'zyoshlarim qon edi. Bu kecha ko'zimga suv kelgan emas. Andalibdek nola aylab ko'ngil uyini beg'am aylab, may bilan xushhol tut. Negaki, may kelgan uyga qayg'u kelmaydi. Yana bir g'azal "O'lturgusi" radifli g'azalida Navoiy oshiq haqida so'z ochar ekan oshiqni mashuqa vasli umidida Majnun ko'yiga tushib qolganligi to'g'risida bahs yuritadi. Andalib bu o'rinda ham Navoiy g'azallaridagi fikrlarga hamohang fikrlar qo'shadi, mashuqani ta'rif etadi, tashqi va ma'naviy go'zalligi bilan oshiqni o'ziga maftun etadigan mashuqa jamolining tavsifi sho'irni diqqat markazida bo'ladi. Mashuqa juda go'zal, u gavhar oshiqni maftun etgudek "qosh-u ko'z", "hol-u xat egasi" "mushko'sunbul" sohibidir. Andalib mahbubaning tashqi go'zalligini tasvirlar ekan Navoiy bandlariga uyg'un ravishda ajoyib misralar yaratadi.

Andalib

Peryat kim men zarni gulguzar olturgusi,
Qatlimga baglap tigi –kin zaru nezer olturgusi,
Gashu-guzin, xalu-xatibiganavaro'lturgusi,
Bir gun meni ol qatili-Mejnun tigar o'lturgusi.
Esruk chiqip javlon qilip divanavar o'lturgusi.
Jan ringdesign mushkden sunbul achiptir irizin.
Diyrlar Navayi qatliga gul-gul achipdir arizin,
Gorgunche ani, vay kim, yuz har-har o'lturgusi.⁶

⁶ Nurmuhammad Andalib. 1990-yil. 63-bet

Ko`rinadiki, Andalib misralarini Navoiyga uyg`un baytlarga aylanishi, shunchaki adabiy hodisa emas. Aslida ustoz baytlarini mohiyatini anglamoq uni chuqurroq tushunmoq uchun poetik izoh ediki, Andalib uni intihosiga yetkaza olgan. Binobarin partavi husni butun jahonni to`ldirganlikdan o`n sakkiz yoshga shuncha fitnalar uning boshida balolar ko`zu qoshida (Navoiy) o`zi ne hayratga solishi holatki, goh yig`latar, goh kuldirar, nutqidan jon bersa, fatton ko`zlaridan oldirar. (Andalib). Buning boisi bor: Oriflik iqtidori olamni boqiyiligini tan oladi. Olamni yaratilishiga va yaratuvchi naqqoshga oid ilohiy mo`jiza yana ishorat hayrat bor.

Vah, ne to`fon turg`uzib olamni buzdi qahri ashk

Zafaron zar orazin ruh- ruh qilubdur zaxri oshiq.

Andalibi natovon yanglig` oqizdi axri ashk,

To Navoiy to`kdi ul oy furqatidin baxri ashk.

Xar qachon boqsang quyosh aksi aning boshindadir.⁷

Darvoqe quyosh atalmish yana bir muxammasda Navoiy baytlariga Andalib izohlari orqali yuqoridagi fikrlarni yanada teranroq anglaymiz.

NAVOIY

Ul quyoshga el nazar qilsa, kuziga yosh to`lar

Bu quyosh borgach nazardan ko`zlarimga to`ldi yosh.

ANDALIB

Bu quyoshning novaki mujgonidan tirkash to`lar,

Ul quyoshning tobidan olam aro otash to`lar,

Bu quyoshning lablaridan bodom bekai to`lar.⁸

Quyosh timsoli misralarida shunchaki qayg`urguvchi otash timsoli emas, balki yaratuvchi cheksiz qudrat ramzi ifodasidir. Ammo, u ustod va shogird adiblar nazmida hayrat poetikasiga bog`langan xolos. Andalib mushohadalari hamisha

⁷ Andalib . Lirika"Ilm" Nashriyoti Ashgabat. 1976-yil 71-bet

⁸ Nurmuhammad Andlib Ashgabat .1990. 60-bet.

ham yuqoridagidek samo donishligi bilan ham cheklanib qolavermaydi. Unda yeru zaminga xos umr guzaronlikka monand hissiyotlar ham vasfi ham o'zgacha tahlidlarda Xofiz Sheroziy ta'rifi keltirilgan. Xofiz radifli g'azal bo'lgani yanglig' Andalibda ham o'z taqdir talqiniga ishora etilgan namunasi bor.

Tosh aro aylab vatan toshbaqa bo'ldi Andalib

Tuproqa bag`rin bosib,qurbaqa bo'ldi Andalib.

Bo`lmasa qurbaqa, toshbaqa ul nafsi yomon

Ne uchun bir uyda doim yakka bo'ldi Andalib.

Do`st bo`lganlar eshitsalar sovuqdin o`lganim

Qo`shilib ayturlar o`lsa yakto bo`kdi Andalib.

Bo`lsa qish urmish g`ovakka,yoz bo`lsa yozilur

Goh boshqush bo'ldi, gohi haqqa Andalib.⁹

Hurfikrlilik yetuk alloma adiblarni, faylasuf fozillarni hamishalik shiori bo'lgan. Andalib sodiq qadam ijodkor ekanligi uning yuqoridagi hayotiy misralaridan ko`rinib turadi. Andalib o'zini o'zi inkor etib, nafsi yomon kimsa darajasida ta'riflashga tutingan. Bu bejiz emas. Xayotda ko`p xoru zorliklarga duch kelgan erkin fikrlovchi insonni hajvnoma e'tirofi bu. Xor va zor umr kechirish faqat ijod axliga xos taqdirmi? Yomon otlig' bo'lish gohida xakka bo'lib tanilishga na hojat na zarurat bor edi.Bunday savollarga javobni Andalibni qator g'azallari, muxammaslari, mashhur dostonlari sahifalaridan to'liqroq javob izlaymiz.O'tmish mumtoz adabiyotda romantik ko'tarinkilik, mayllar doim ustuvor bo'ladi, bu qat'iy an'ana bo'lgan. Bu an'anaga Navoiy ham yiroq bo'lmagan.

⁹ Nurmuhammad Andalib. Ashgabat.1990. 36-bet.

Andalib dostonchilik sohasida ham Navoiy ijodidan uning dostonchilikdagi an'analaridan bahramand bo'lgan va ajoyib dostonlar yaratgan. Andalib Ozarbayjon adabiyotining buyuk namoyondasi Fuzuliy adabiy merosidan o'rnak olgan va g'azallariga ajoyib muxammaslar bog'lagan. Fuzuliyning "yonmasmi" radifli g'azaliga Andalib quyidagicha muxammas bog'lagan.

Chiqiptir namusulmanim, qilipdir qasdi imanım

Pelekde osi suzanım,gozumde eshki – galtanım.

Ichimde derdi- pinxanım, tebib-a, yoqmi dermanım?

“Shebi –hijran yanar janım, doker gan cheshmi-giryanim

Oyadar xalqi efganım, gara bagtim oyanmazmi?”¹⁰

Misralardan ko'rinib turibdiki, lirik qahramon oshiqlik bois yetib kelayotgan qator mashaqqatlarga bardoshli bo'lishga intiladi, umidvorlik bilan “gara bagtim oyantazmi”-? deb murojaat etadi.

Quyidagi misrada esa ushbu fikrni yanada chuqurroq tasavvur etishga undaydi.

Jahanda doli govgadir, pigani-Andalibadir,

Ne yanlig' shurushefzadir, tilim vaspinda guvyadir,

Ana qoyunde mevadir,elinde jami sexbadir,

“Fuzuli rindi- sheydadir, xomishe halka risvadir?”¹¹

Andalib Fuzuliyning faqat g'azallaridan bahramand bo'lgan emas. Andalib o'zining “Layli va Majnun” dostonini yaratishda Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonidan mohirona foydalangan. Andalib o'zining sermahsul ijodi davomida Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa ulug' siymolar an'analariga qanchalik mehr qo'ygan bo'lsa, XVII asrda yashab ijod etgan o'zbek mumtoz shoiri Boborahim Mashrabning nazmiy merosini ham shunchalik mehr qo'yib o'rgangan.

¹⁰ Nurmuhammad Andalib. Ashgabat. 1990 . 73-bet.

¹¹ O'sha manba

Mashrabning gʻazallari, sheʼrlari gʻoyat nafis va ravon yozilgan. Bu gʻazallar shu qadar goʻzal va shu qadar jozibadorki, qalblarni maftun etadi. Andalib Mashrabning gʻazallari bilan tanishar ekan, oʻzi ham Mashrab uslubi va ruhida jarangdor va jozibali sheʼrlar yozadi. Andalibning “Men senga shaydo” sheʼrlaridan keltirilgan bu bandlar fikrimizning dalilidir.

Gije ve gunduz seni goʻzlar men,

Koʻchebe-koʻche seni izlar men

Her kim yoʻluksa senden soʻzler men,

Goʻrdum yuzinni, alxamdililla.

Bir nige gunler men zari efkar,

Boʻldum giriftar men sana, ey yor

Oʻval axirda sen mana derkar,

Goʻrdum yuzunni, alxamdililla.¹²

Bu bandlarda Andalib xalqqa nihoyatda tushunarli, mashrabona ohanglarda nazm barpo eta olgan. Aslida bir qarashda Mashrab usuli yengil va oson oʻqilgandek boʻladi, ammo ushbu yengillik zahirida yotgan falsafiy-maʼrifiy mushohadalarni anglash barchasidan mushkulroq. Yetuk maʼrifatli ijodkorlarga ana shu uslubni tanlaydi. Andalib va Mashrab hamohangligini mohiyati ham ana shunda. Andalibning oʻn banddan iborat, “Yorning firoqi” radifli sheʼrida Mashrabning ishqiy lirikasiga xos ohangdorlikni mazmun talqinidagi yaqinlik va oʻxshashlikni, mushtaraklikni koʻramiz.

Istep yerur men Shomu iragi,

Tapmadim asla yardan soʻrachi

¹² K.Quramboyev. Oʻzbek turkman adabiy aloqalari. Toshkent. 1978. 42-bet

Yandirdi janim goh ishtiyazi

Shushgil ekandir yarin piragi.

Gitdim o'zumdin yolunda men xar

Janu dilimden artiqdir ol yar

Qolub kesdir, Andalib efgar,

Koydurdi do'stlar, yarlik piragi.¹³

Mashrab g'azallari XVII asr o'zbek adabiyotining eng go'zal namunalaridan biri bo'lgan. Shuning uchun ham uning nazmiy merosi o'zidan keyingi o'zbek va turkman shoirlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Andalib Mashrab she'riyatidan ilhomlanib go'zal g'azallar, she'rlar yaratgan quvnoq, sermazmun g'azallariga naziralar bog'lagan va o'xshatmalar yozgan.

Mashrabning:

Gulgun sochingni yozib kel sayri bog'a dilbar

Noz-u karashma birlan kelgil quchog'a dilbar.¹⁴

G'azali Mashrab yashagan davrda ham, undan keyin ham juda mashhur bo'lgan. Har bir o'zbek va turkman shoirlari bu g'azalga nazira bog'lashga, o'xshatma yozishga harakat qilganlar.

Andalib ham Mashrabning "Dilbar" radifli to'qqiz bandli muxammasidan keltirilgan quyidagi she'riy parcha orqali g'azalga nazira bog'lab, shoirlik mahoratini namoyon etadi. Andalib:

Gurban olam goz uzre badam gabaga, dilbar

Gergech meni yapinidi gamzan pichaga, dilbar.

¹³ O'sha manba

¹⁴ O'sha manba

Laglin meyiden ichmiy dushdum ayacha, dilbar,

Bolgay ne novch xalim etich dovaga, dilbar.

Qatlim geneshin eyler zulpun gulacha, dilbar.

Gul chixren et nemayan bichere Andaliba,

Qilsan ne bo'ldi chexi nazara Andaliba,

Rahm eylemezli sen xich avara Andaliba,

Bir jami doli tutgil meyxara Andaliba,

Nezu itabi birle barganda barcha dilber.¹⁵

Andalib o'z uslubiga ega bo'lgan talant egasidir. Andalib Mashrab g'azallarini har bir baytida mustaqil fikr yuritib, g'azallaridagi ohangga yangi ohang qo'shib, undagi g'oyalarni o'zi yashagan zamon va zamin fonida kuylashga harakat qilgan. Andalib Mashrab ijodiga o'zi yashagan ijtimoiy muhit – XVII asr talablari asosida yondashgan. Andalib Mashrabning : “Jabr-u jafoga” g'azaliga o'xshatma keltiradi.

Mashrab:

Ko'nglimni berdim bir bevafoq'a,

Qo'ydi yuragim jabr-u jafoga

Ey nozaninim, menga rahm qil,

Qo'ydim seni deb yuz ming baloga.

Tortdim jafoni rohat ko'ray deb,

Qilsang jafolar yig'lay xudoga.

¹⁵ K.Quramboyev O'zbek va turkman adabiy aloqalari Tosh. 1978.44-bet

Bemori ishqing bo`ldim netarman,

Sobir baloga rozi qazoga

Muhtijning o`qi o`tti bu jondin,

Nogah sovuq so`z tushdi oraga.

Mashrab seni deb kechdi jahondin,

Rahm aylamasang muflis gadoga¹⁶

Andalib:

Ko`nglumi berdim bir bivefaga

Qo`ydi yuragim jebr-u jepaga

Ey nezaninim, mana rahm qil

Galdim sen diyip, sansiz belaga.

Bimari shikin boldum neter men

Ne chere eyley jebre jepaga

Peykamin oki degdi yurege

Barmi davolar ushbu yaraga.

Dunyede chekdim men axi hasret,

Sabir qilaver ushbu jepaga

Zalim raqiqlar biyaeniqildi,

Ey taraxkummenbinavaga.

Qilsen jepalariyig`lam xudaga,

¹⁶ O`sha manba

Andalip sen diyp, gecher janindan.

Qilg`ilayanat muflik gedaga¹⁷

Bu g`azallar, ya`ni Andalib g`azali Mashrab g`azaliga o`xshash bo`lsada, unga diqqat bilan nazar tashlasak, Andalib g`azalining o`ziga xos xususiyatlari bor. Andalib g`azali hajm jihatidan katta, undagi 4,5,6 baytlar Mashrab g`azalidagi baytlardan o`zgacha. Bu baytlardagi mazmun Andalib talqinida o`zgacha mazmunni aks ettiradi.

Mashrabning:

Muhtojning o`qi o`tti bu jondin,

Nogah sovuq so`z tushdi aroga.¹⁸

kabi bayti Andalib talqinida yanada go`zalroq joziba, yana ham silliqdashgan aniq mazmunni ifodalaydi .

Andalib:

Peykami oqi degdiyurege ,

Barmi dovalar ushbu yaraga¹⁹

Bu o`xshatishlar Andalibning Mashrab g`azaliga ijodiy ergashganidan dalolat beradi.

Andalib ,Navoiy,Fuzuliy va Mashrab va boshqa klassik shoilarning ilg`or an`analaridan ilhomlanishi,o`rganishi natijasida zamonasining yetuk shoiri bo`lib yetishdi.

¹⁷ K.Quramboyev. O`zbek va turkman adabiy aloqalari.Toshkent. 1978 . 45-bet

¹⁸ O`sha manba 45-bet

¹⁹ O`sha manba 48-bet.

1.3-§. O'zbek adabiyotida Andalib an'analar

Andalibdan keyin yashab ijod etgan ko'pgina o'zbek klassik shoirlari Andalib an'alarini rivojlantirdilar, uning g'azallariga naziralar yozdilar, muxammaslar bog'ladilar. XVII-XIX asrlarda yashab ijod etgan o'zbek klassik shoirlari Shermuhammad Munis va Muxlis ijodida Andalib asarlari uslubi va ruhida yozilgan muxammaslarni naziralarni uchratishimiz mumkin.

Munis Andalibni ustoz deb bilgan va o'z ijodiy faoliyati davomida Andalibdan ilhomlanib, uning ilg'or ana'nalarini o'zi yashagan ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda rivojlantirgan shoir hisoblanadi. Munisning Andalib g'azaliga bog'lagan "Na balo xup" radifli muxammasiga nazar tashlar ekanmiz unda shoir Andalib ijodiga chuqur muhabbatini darhol sezamiz.

Andalib:

Ey reshki peri, mehri jemalin ne bela xup ,

Vey nilufari dekgana xalin ne bela xup.

Pikrinda bo'lup, go'zlerime jilve nemayan

Xer sogatu xer lahza xiyalin ne bela xup.

Lagdin g'amidan tashladi xizir abi-hayatin,

Kovser suvi dek safi-zulalin ne bela xup.

Ey xuir, yuzunnin biri ay, birisi chun dek,

Bu ay-u quyosh uzre hilalinne bela xup.

Boshdin ayaqindir achilan gulsheni hubi,

Ser te begadam teze naxalin ne bela xup.

O'ldurse gozun, ikki labin leyk berur xan,

Janbaxshligin xubu-kitalin ne bela xup.

Beqasam yuzune Andalibasa ajab ermas ,

Pirkatzoda bo'lganga visalin ne bela xup.²⁰

Andalib ishqiy g'azallarida ma'shuqani ko'zi-qoshi, yanog'i-labi, kiprigi , bo'yi-basti va takabburligi va oshig'iga bo'lgan beparvoligini aniq ko'rsatib beradi. Andalib g'azallari orqali o'zining ma'shuqa vasliga osonlik bilan yetishib bo'lmasligini ham uqtiradi.

Shermuhammad Munis ham Andalib g'azalidan ta'sirlanib, muxammas yozadi. Munis muxammasi mana bunday misralar bilan boshlanadi.

Ey sarv kibi, qaddi kamoling na balo xo'b,

Ey g'unchan, lalin uzra boling na balo xo'b.

Ey isiy-jonbaxsh maqomingna balo xo'b,

Ey rashki pari mehr-jamoling na balo xo'b.

Ey nilufardek qo'sha xolina na balo xo'b,

Dahr ichra birov sen kabi oliynasab ermas

Har bebasar afsofini demak adab ermas.

Munisga yo'lingda yurmak besabab ermas,

Boqsam yuzingga Andaliboso ajab ermas.

Furqatzoda bo'lganga visoling nebalo xo'b.²¹

Munis ham Andalib singari muhabbatni ulug'lagan. Munis g'azallarining ko'pchiligi ishq – muhabbat mavzusidadir. Shoir ishqiy g'azallarida o'zini

²⁰ Andalib.Lirika .Ashgabat.1976 .36-bet.

²¹ Shermuhammad Munis.Tanlangan asarlar Toshkent . 1957.322-bet.

oshiqlarga “Qiblanamo” deb ataydi, ma’shuqaning yuzini quyoshga, o’zini uning oldidagi zarraga tenglashtiradi, ma’shuqaning jafakor emas balki vafodor bo’lishini istaydi.

Sarv qomatining soyasini jannatdagi go’zal daraxtdan va” hoki kuyi”ni jannat gulshanidan ortiq deb biladi. Shoirning fikricha, muhabbat ikki tomonda bo’lmasa, oshiq va mashuqa o’rtasidagi sevgi dil va til topmaydi, balki baxt yo’liga g’oya bo’ladi. Ikki tomonning ham sevish va sevilish ishqning asosiy shartidir.

Andalib ham Munis ham o’z ijodining avval bahoridanoq hayotni yashashni sevish, umrini quvnoq o’tkazish orzusi bilan nafas olganlar. Shuning uchun ular o’z hayotlarining keyingi davrlarida har xil qiyin chiziqlarga duch kelsa ham yaxshi va farovon yashashga intilganlar. Bu ikkala shoir o’zlarining ishqiy she’rlarida haqiqiy yorni, samimiy oshiq va vafodor ma’shuqani madh etadilar, zo’rma-zo’raki sevish va sevilishning fayzi bo’lmasligini ta’kidlaydilar.

Andalib epik asarlari bilan o’zidan keying shoirlarni ilhomlantirgan. O’zbek klassik shoirlari Andalibdan ta’sirlanib go’yaviy –badiiy asarlarni yaratganlar. Andalib obrazlari XIX asrning o’zbek ma’rifatparvar shoiri Zokirjon Furqat Andalib ijodidan, ayniqsa, uning dostonlaridan bahramand bo’lgan. Furqat o’zining “Sayding qo’yaber Sayyod” misralari bilan boshlanadigan mashhur musaddasini Andalibning “Layli va Majnun” dostonidagi “Sayding qo’yaber Sayyod, dilpora ekan mendek” muxammasidan ilhomlanib yaratgan. Andalibning bu muxammasi Furqat qalbida ijodiy niyat tug’dirgan, shoirda erksizlikka, qullikka qarshi asar yozish istagini uyg’otadi. Furqatning adabiy merosi bilan tanishsak, shoirning Andalib ijodi, uning asarlari bilan tanishligi, ilhomlanganligi, ta’sirlanganligi “Layli va Majnun” dostonining biror nusxasini o’qiganligidan, klassik adabiyot orqali unga tanish bo’lgan mazkur epizod bilan bog’liq o’sha muxammas sezgir shoirning yuragiga muhrlangan.

Andalib muxammasi va Furqat musaddasini g’oyaviy hamda badiiy jihatdan qiyoslasak, Furqat musaddasi g’oya va obrazlari bilangina emas, balki shakl

oshiqlarga “Qiblanamo” deb ataydi, ma’shuqaning yuzini quyoshga, o’zini uning oldidagi zarraga tenglashtiradi, ma’shuqaning jafakor emas balki vafodor bo’lishini istaydi.

Sarv qomatining soyasini jannatdagi go’zal daraxtdan va” hoki kuyi”ni jannat gulshanidan ortiq deb biladi. Shoirning fikricha, muhabbat ikki tomonda bo’lmasa, oshiq va mashuqa o’rtasidagi sevgi dil va til topmaydi, balki baxt yo’liga g’oya bo’ladi. Ikki tomonning ham sevish va sevilish ishqning asosiy shartidir.

Andalib ham Munis ham o’z ijodining avval bahoridanoq hayotni yashashni sevish, umrini quvnoq o’tkazish orzusi bilan nafas olganlar. Shuning uchun ular o’z hayotlarining keyingi davrlarida har xil qiyin chiziqlarga duch kelsa ham yaxshi va farovon yashashga intilganlar. Bu ikkala shoir o’zlarining ishqiy she’rlarida haqiqiy yorni, samimiy oshiq va vafodor ma’shuqani madh etadilar, zo’rma-zo’raki sevish va sevilishning fayzi bo’lmasligini ta’kidlaydilar.

Andalib epik asarlari bilan o’zidan keying shoirlarni ilhomlantirgan. O’zbek klassik shoirlari Andalibdan ta’sirlanib go’yaviy –badiiy asarlarni yaratganlar. Andalib obrazlari XIX asrning o’zbek ma’rifatparvar shoiri Zokirjon Furqat Andalib ijodidan, ayniqsa, uning dostonlaridan bahramand bo’lgan. Furqat o’zining “Sayding qo’yaber Sayyod” misralari bilan boshlanadigan mashhur musaddasini Andalibning “Layli va Majnun” dostonidagi “Sayding qo’yaber Sayyod, dilpora ekan mendek” muxammasidan ilhomlanib yaratgan. Andalibning bu muxammasi Furqat qalbida ijodiy niyat tug’dirgan, shoirda erksizlikka, qullikka qarshi asar yozish istagini uyg’otadi. Furqatning adabiy merosi bilan tanishsak, shoirning Andalib ijodi, uning asarlari bilan tanishligi, ilhomlanganligi, ta’sirlanganligi “Layli va Majnun” dostonining biror nusxasini o’qiganligidan, klassik adabiyot orqali unga tanish bo’lgan mazkur epizod bilan bog’liq o’sha muxammas sezgir shoirning yuragiga muhrlangan.

Andalib muxammasi va Furqat musaddasini g’oyaviy hamda badiiy jihatdan qiyoslasak, Furqat musaddasi g’oya va obrazlari bilangina emas, balki shakl

jihatidan ham Andalib muxammasiga o`xshab ketadi. Har ikkala asarda ham bir xil mazmundagi misralar ko`zga tashlanadi. Masalan (Andalib), "Sayding qo`yaber sayyod dilpora ekan mendek", (Furqat) "Sayding qo`yaber sayyod, sayyora ekan mendek", (Andalib) "Har sari chekib sudrab o`ltirgali chog`labsan", (Furqat) "Iqboli niguni, baxti ham qaro ekan mendek" singari misra va iboralar bor. Andalib muxammasidagi "Ol domingni bo`ynidin : bechora ekan mendek": "Besh kun sani davringda bechora xirom etsin" misralari Furqat musaddasida aynan, mutlaqo o`zgarishsiz keltiradi. Lekin bu Furqat musaddasi originallikdan holi, u Andalib muxammasining aynan takrori deb o`ylamasligimiz kerak. Bu ikki asar ko`p jihatdan bir-biriga o`xshasa-da, har qaysisi o`ziga xos alohida xususiyatga, fazilatga, originallikka ega. Ularda har ikkala shoirning o`ziga xos ovozi eshitilib turadi. Fikrimizni dalillash uchun ikkala asardan parcha keltiramiz:

Saydinni goyber sayyat dil para ekan men dek,

Chollarde gezip yorgen seyyara ekan men dek,

Serta seri xijrandan kap yara ekan me dek,

Serkeshte geri,bolgan avara ekan men dek ,

Al, daminni bo`yudin, bichora ekan mendek.

Besh gungun sening to`vrinde bichora xarram etsin

Qolumduki gaplarni yuz katla xeram etsin

Xar gadam go`ysa,el topsa, mukam etsin.

Te takati tak olmay, yariga salam etsin

Al daminni bo`yundan bichora ekan men dek.

Ishq epetiden Majnun julideyi –per boldum,

Ovzagimni il bilimez, axvali –diger boldum,
Bularni nezir qil deyp, sana yuztutar boldum,
Al daminni boynudan, bichare aken men dek.²²

Furqat

Sayding qo'ya ber, sayyod sayyora ekan mendek,
Ol domingni bo'ynidan bechora ekan mandek,
O'z yorini topmasdan ovora ekan mandek
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mandek
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mandek.
Besh kun seni davringda bechora hirom etsin,
Ohular ila o'ynab ayshini mudom atsun,
Yomg'ir suvi to'lganda tog' lolani jom etsun,
Haqqingga duo aylab, umrini tamom etsun,
Hijron o'qidin jismi ko'p yara ekan ekan mandek
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mandek.
Yo'q hushi pari tekkan devonaga o'xshaydur,
Ko'z yosh yana to'lgan paymonaga o'xshaydur,
G'am seli bila ko'ngli vayronaga o'xshaydur,

²² Andalib Saylanma asarlar . Ashgabat.1963 . 81-bet.

Furqatda bu Sa'dullo, hayronaga o'xshaydur,

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,

Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mandek.²³

Bu parchalardan ko'rinib turibdiki, bandlar har jihatdan mazmun jihatidan ham, shakl jihatidan ham ohangdosh. Lekin bandlarning farq qiladigan tomonlari ham bor. Furqat bandlarni hajm jihatidan ancha kengaytirgan, asarning ta'sir kuchini yanada oshirgan. Furqat asarga o'z davri talablariga kengroq mazmun berishga harakat qilgan. Muxammasda ham, musaddasda ham sayyod zulm, zo'rlik va adolatsizlik sayd esa tutqinlik timsoli sifatida talqin etiladi. Ikkala ijodkor xam zulm va jafo ko'rgan saydga achinish xissi bilan qaraydilar, sayyodni esa erkinlikning ashaddiy dushmani sifatida la'natlaydi.

Andalib muxammasidagi mazmun hamda sayd, sayyod obrazlari musaddasda ham saqlangan. Shunga qaramasdan, musaddasdagi obrazlar muxammasdagi obrazlarning takrori emas. Furqat do'sti Sa'dullanning dushmanlari tomonidan qo'l -oyoqlari bog'langan holda har tomonga sudrab yurishlari xolatini bo'rttirib ko'rsatish uchun Andalib muxammasidagi obrazlarga murojaat qilgan bo'lsa-da, bu obrazlarga realistik bo'yoqlar berishga harakat qilgan. Andalib o'z asarida Majnun holatini, uning muxabbat ayrilig'ini, qalb iztiroblarini ko'rsatish uchun o'hu obrazidan foydalangan bo'lsa, Furqat bu allegorik obraz orqali qo'l-oyog'i bog'langan Sa'dullanning ayanchli ahvolini tasvirlagan.

Bechorani zulm aylab qo'l bo'ynini bog'labsan,

Har sori chekib-sudrab, o'ldurg'ali chog'labsan,

Ko'ksini jafo birla lola kabi dog'labsan,

Sot menga agar qasding olguvchi so'rog'labsan,

²³ Furqat. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1958. 149-bet.

Hijron o`qidin jismi ko`p yora ekan mandek,

Kuygan jigari bag`ri sadpora ekan mandek.²⁴

Bu satrlarni o`qir ekanmiz, ko`z o`ngimizda ohu emas, o`lim changalida turgan inson Sa`dulla gavdalanadi. Andalib muxammasida sayyoddan ohuni ozod qilishini o`tinib so`rasa, Furqat begunoh Sa`dullani bo`shatishni talab qiladi. Andalib o`z asarida ko`proq ishq-muhabbat motivlarini, ya`ni Majnunning ishq yo`lidagi kayfiyatlarini kuylasa, Furqat ijtimoiy mazmun, taqdir masalasiga keng o`rin beradi. Andalib ohu holatini ko`rsatish maqsadida muxammasning har bandi oxirida "Ol domini bo`ynidan bechora ekan mendek" takrorlaydi. Furqat ham shu uslubni saqlagan. U asarning ta`sirini yanada kuchaytirish uchun har bandni bir misra bilan emas, balki

Hijron o`qidin jismi ko`p yora ekan mandek,

Kuygan jigari bag`ri sadpora ekan mandek

bayti bilan yakunlab boradi. Andalib sayyodga Majnun orqali murojaat qilgan holda, Furqat sayyodga lirik qahramon shoir tilidan murojaat qiladi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarimizni xulosalab aytish mumkinki, Furqat Andalib ijodi, xususan, uning "Layli va Majnun" dostoni bilan juda yaxshi tanish bo`lgan, undan ilhomlangan, foydalangan. Andalibning "Layli va Majnun" dostonidagi muxammasida ilgari surilgan g`oyalar Furqat talqinida yanada yuqoriroq pog`onaga ko`tarilgan. Shoir o`zining turmush haqidagi olijanob orzu-istaklarini, erkin va quvnoq hayotga bo`lgan nafratini ifodalashda Andalib tajribasiga tayanadi, uning muxammasiga musaddas bilan javob berib, shoirlik iste`dodini yanada ravshanroq namoyon etdi. Musaddas o`zbek adabiyotining eng yaxshi namunalaridan biri bo`lib qolgan.

²⁴ O`sha manba

II Bob. Andalibning badiiy merosi

2.1 Andalib lirikasi

Gʻazalnavis va dostonnavis oʻzbek, turkman, arab va fors tillarining chuqur bilimdoni, tarjimon Andalibning adabiy merosi bugun Toshkent, Ashxabot, Dushanbe va Rossiyadagi Sharqshunoslik institutlarida saqlanmoqda. Nurmuhammad Andalib XVII asr Oʻrta Osiyoning eng mashxur va adabiy merosiga ega boʻlgan shoirlardan biri hisoblanadi. Maʼlumki, oʻzbek adabiyoti ham turkman adabiyoti ham uzoq asrlik ilgʻor anʼanalarga, boy tarixga egadir. Ular birinchi navbatda, oʻz xalqining ijtimoiy –siyosiy va maʼnaviy hayoti bilan har doim aloqada boʻlib, undan oziqlanganlar, keyingi taraqqiyoti jarayonida oʻsha anʼanalarga tayanganlar.

Turkman va oʻzbek oʻtmish adabiyoti, oʻz milliy anʼanalari, oʻz milliy zaminida, oʻz tarixiy sharoitida rivojlanish bilan birga ular oʻzaro aloqada, adabiy taʼsir asosida, boshqa milliy adabiyotlar bilan doʻstona ijodiy hamkorlikda, bir-birlarining ijodiy tajribalaridan bahramand boʻlgan holda bir-birlarini boyitib, taraqqiy etib kelgan.

Andalib oʻzining ajoyib asarlari orqali turkman adabiyoti tarixi bilan birga oʻzbek adabiyoti tarixida ham munosib oʻringa egadir. XIX asr oʻzbek shoirlaridan bir nechasi Andalibga ergashganlar ustoz sifatida undan namunalar olganlar. Andalib oʻz zamonasining oʻqimishli, donishmand kishilaridan boʻlgan. Shoir arab, fors tillarini ham yaxshi bilgan va bu tillarda tarjimalar qilish bilan shugʻullangan hamda Sharq adabiyotida yuksak oʻrin olgan.

Andalibning asarlari, bayozlari qoʻlyozma shaklida bizga yetib kelgan. 1940-yillarda topilgan maʼlumotlar orasida Andalibning asl kelib chiqishi va adabiy merosi haqida qimmatli maʼlumotlar beriladi. Bu maʼlumotlar 1941-yilda yetmish yoshli Isgender obali Seyitjon Qoʻzi oʻgʻli yetmish uch

yoshli Xiva shahrida yashagan Qurbon ota Ismoil o'g'li (laqabi Qurbon soqchi juda savodli odam bo'lgan) tomonidan aniq qilib beriladi.

Andalib hayoti va adabiy merosini dastlab mashhur venger olimi German Vamberi tomonidan o'rganilgan. 1867-yilda Germaniyani Leypsig shahrida nashr etilgan "Chig'atoy adabiyoti" xrestomatiyasiga "Sa'd Vaqqos" dostoni kiritilgan. XX asr boshlarida A. Fitrat Andalib adabiy merosiga murojaat qilib uni asarlaridagi ba'zi namunalarni o'zbek adabiyoti xrestomatiyasiga kiritgan.

Andalib merosini o'rganish va targ'ib qilishda turkman va o'zbek olimlarining tabiiy bir hamkorligi yuzaga keladi. Andalibning boy badiiy merosini tiklash va xalqqa yetkazishda yetakchilik qilgan turkman olimlari A. Meredov, A. Bekmurodov, N. Gullaev, E. B. Muhammedova, A. Amirov, qoraqalpoq olimi K. Quramboyev, o'zbek olimlaridan K. Tohirov, Yu. Yusupov, V. Abdullayev, F. Musamammedovlarni izlanishlari samarali shoir haqida turkman va o'zbek o'quvchilariga muayyan ma'lumotlar yetkazildi. Avval hanuzga qadar Andalibning purhikmat muxammaslari-yu ko'lamdor dostonlari turkman va o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan atroflicha o'rganilgani yo'q.

Andalib adabiy merosi Markaziy Osiyo xalqlari va adabiyotlari hamkorligining yorqin timsollaridir. Shoirning barcha tur va janrlardagi g'azaliyoti hamda dostonlarining biron bir nuqtasi yo'qki, bevosita yoki bilvosita biron bir turkiyo'y yoki forsiyo'y ijodi bilan bog'lanmagan bo'lsin.

Shoirning adabiy merosida tarjimachilik bilan shug'ullanganligi katta o'ringa ega. Xiva va Buxoro madrasalari o'tmishda nafaqat ilm-ma'rifat markazlari shu bilan birga Markaziy Osiyo tuprog'ida yashovchi ellar va elatlarning o'zaro aloqasi, yaqinligini vujudga keltirib turgan ma'daniy vosita sifatida ham e'tiborlidir. Aynan ana shu madrasa tahsili bois oddiy xalq vakili Andalib arab va fors adiblarining asarlarini tarjima etishdek muhim ishga ham o'zida salohiyat topa olgan. "Risolayi Nasimiy" arabchadan ijodiy o'girilgan bo'lsa, Nizomiy va XII asrda yashagan xurosonlik Abulhasan Jomiy kitoblarining ayrim qismlarini forsiydan tarjima qilishga uringan.

Nurmuhammad Andalib turkman va o'zbek adabiyotida o'zining lirik g'azallari orqali ajralib turadi. Andalib mumtoz adabiyotning hamma janrlarida barakali ijod qilib ajoyib lirik she'rlar, g'azallar yaratadi. Sharqning mashhur klassik shoirlari asarlari orasida o'ziga xos ovozga ega. Muhabbat mavzusi shoir g'azaliyotida o'zining nafis go'zalligi, chuqur mazmundorligi, rang-barangligi bilan kishini maftun etadi. Andalib lirikasida kuylangan insoniy ishq taronasi Ollohga bo'lgan muhabbat bilan uyg'unlashib ketgan. Shoir madh qilgan sevgi chin va pok sevgidir. U ishqni inson uchun muqaddas tuyg'u deb tushunadi. Andalib bir maqsadga erishmoq uchun qancha zahmat chekish bo'lsa ham, oshiq mashuqasini vasliga yetishmog'i va og'ir mashaqqatlarni yengib chiqishni misralarida bayon qiladi.

Ne bila xup

Ey reshki peri, mehri jemalin ne bela xup ,

V ey nilufari dekgana xalin ne bela xup.

Pikrinda bo'lup, go'zlerime jilve nemayan

Xer sogatu xer lahza xiyalin ne bela xup.

Lagdin g'amidan tashladi xizir abi-hayatin,

Kovser suvi dek safi-zulalin ne bela xup.

Ey xuir, yuzunnin biri ay, birisi chun dek,

Bu ay-u quyosh uzre hilalinne bela xup.

Boshdin ayaqindir achilan gulsheni hubi,

Ser te begadam teze naxalin ne bela xup.

O'ldurse gozun, ikki labin leyk berur xan,

Janbaxshligin xubu-kitalin ne bela xup.

Beqasam yuzune Andalibasa ajab ermas ,

Pirkatzoda bo'lganga visalin ne bela xup.²⁵

Andalib bu g'azalida ma'shuqa qiyosini ta'riflash orqali tasavvufona hayrat maqomiga yaqin keladi. U yerda keltirilgan har bir poetik nuqta jozibaviy tasvirga egadir.

Andalib lirikasida tabiat lavhalari go'zalligi ham katta o'rinda turadi. Bunday turdagi g'azallardan biri "Tap achdi" g'azalidir. Chunki shoir aslida tabiat qo'ynida o'sib kamol topgan insondir.

Tap achdi

Bahar eyyami gozden g'unchalar gumiende xap achdi,

Saba mehmatasi sunbulnin zulpun yaydi, tap achdi.

Go'rub serkashta ahvalini bazmi-bustan ichre ,

Tebessumlar bilen bilbilyas guller layami-nap achdi.

Diylan gul g'unchasi gullar dema deb bilbilin chirlap,

Xarimi –gulshen ichre sebz xanidin kitap achdi.

Sunarga bilbile zerrin tiyala birle gulshende,

Diymenlar nesteren leba-leb guli-gistar achdi.

Xalilasa ozuni atashi ishq ichra urgan chun,

²⁵ Nurmuhhammad Andalib . Lirika "Ilm" nashriyoti. Ashgabat. 1976. 36-bet

Bilin , xaq rozzayi-gulzaridan bilbile bap achdi.

Debistani – chemende tifi yanlich Andalibi – zar,

Ki bismilla achiban ilde xamradan kitap achdi.²⁶

Misralardan anglash mumkinki, Andalib faqat tabiatning jozibali tasvirini berish bilan kifoyalanib qolmasdan, g'azal maqtasida yana bir muhim xulosaga keladi. Oshiq shoir o'zining chinakam ishq otashiga urgani uchun ham Haqdan rag'bat topadi. Andalib - bulbulga haq yangi bob ochadi, go'yoki elda ma'rifiy hamrodan yangi kitob ochgandek his qiladi o'zini.

Ruhiyat olami mumtoz she'riyatning odil mezonini bo'lib qolgani haq. Ammo oddiy hayot tarsi ham ahyon-ahyonda ijodkor fikriga g'avg'o solib qolardiki, shoirning romantik tuyg'ulari xuddi ana shu nuqtalardan oziq ola boshladi. Hayotiy nuqtalarning nafasi g'azaliyotiga kirib kela boshladi. Andalib o'zi yashayotgan muhitning aniq ijtimoiy hodisalari haqida asarlar ijod etdi. Shoir mehnatkash dehqonlarning iztirobli ahvoliga achinardi. Suv dehqon uchun qon-jon, havodek zarurdir. Suvsizlik yoki suv yetishmasligi mehnatkash dehqonlarni tanazzulga yuz tutdiradi. Shu jihatdan Andalibning "Chig'ir" (suv chiqaruvchi chig'ir) haqidagi muxammasi o'zbek va turkman dehqonlarining bamisoli yurak nidosi bo'lib maydonga keladi. Shoir bu muxammasida chig'irni o'sha zamonga nisbatan eng muhim qishloq xo'jalik quroli ekanligini qayd qilishi bilan uning bahosini ikki yuz tilla deyish bilan bu bahoga birorta kambag'al dehqonning qudrati yetmasligi qahr-u g'azab bilan aytiladigan kinoyaviy ishoradir.

Chig'ir dig'iridan navoga tushgan suvni ko'z yoshga o'xshatishda ham chuqur mantiqni ko'ramiz.

²⁶ Nurmuhammad Andalib. Ashgabat. 1990. 36-bet

JIKIR

Bushduq dayxanlara, bir nezenin janan jikir
Bo`lsa suv vagti eshikda aylanur chendan jikir.
Iki yuz tilla baxasi bo`lsa ham arzar jikir,
Guldurep suvni guyarda oresi lerzan jikir,
Eshki silap go`zlariden oqizur giryan jikir.
Xer seherler nala aylep, kichgurur sheyda bo`lup,
Aylanur yuz na`ma birlen bilbili-go`ye bo`lup
Kolche-kolche erleri roxmat suvi derya bo`lup
Raxmetiden go`gerer jumle nebatat ja bo`lup,
Xaq talaga zikrin aydar, gijelar efgan jikir.
Sen gulak, yakar xer dembe-dem ovazi xosh,
Balaman, dutar, sitardan erur xem sazi xosh,
Suv peravan bo`lsa, hem bolar anda yazi xosh,
Dembe-dem dokse digir suvni pikirdan pezi xosh,
Biz kibi uftadalarnin derdini derman jikir.
Bo`lsa go`ye bir sapar kim aylanurda jam eder,
Eygesi yuz mun senalar birle qondun ham eder
Mehribon bo`lsa xuda kimga jikieni dush eder
Kim jikirni lezzatin bilmez kish medxush eder,

Der haqiqat bilgan ilge osli dayxandir jikir.
Kim ki bilmez bu jikirnin lezzin hayvon erur,
Telmirip oltursa “suv” diyp, akmayau-nadan erur,
Dashmasa suv er uchun, ishimiz mun efgan erur
Shukur alla Andalip qildi, jikir jovlan erur,
Biz kibi ulfatlarni derdine derman jikir.²⁷

Andalib dehqonlar uchun sugʻoriladigan hududlarda chigʻirining nechogʻlik zarur vosita ekanligi ham quvonch, ham tashvish keltirish, uning bilan bogʻliq barcha holatlarni tilga olgan holda bir-bir bayon qiladi.

Turkiyzabon ellarning dili va tili bir-biriga hamohang, barchasi uchun birdek qadrli Alisher Navoiy va Maxtumquli, Andalib va Munis, Ogahiy va Zaliliy singari oʻnlab adiblarning poetik merosi mushtarak qimmatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Har ikkala xalq uchun ardoqli va sevimli boʻlgan, gʻazal va dostonlari turkman va oʻzbeklar istiqomat etish qadim Xorazm hududlari keng yoyilgan Nurmuhammad Andalib ham ana shunday moʻtabar falsafiy meros ijodkoridir. XVIII asrda Xorazmda yashagan gʻazalnavis va dostonnavis, oʻzbek, turkman, arab va fors tojik tillarining chuqur bilimdoni hamda tarjimon Andalibning poetik merosi bugun Toshkent, Ashxobod, Dushanbe va Rossiya Sharqshunoslik xazinalarida saqlanmoqda.

Andalib oʻz taxmislarida anchayin hur fikrlilikka, erkin mushohada yuritishga intilar ekan, bunda eng avvalo, mumtoz adabiyotlarimizning bosh mezoni boʻlmish inson maʼnaviy barkamolligi muammosini nazarda tutganligini payqash lozim. Hurfikrlilik va komil vasfi aslida mafkuraviy zamin hisoblanadi. Faqat uni turli tamoyillarda, yoʻnalishlarda, binobarin, ruhiyatning moʻtabar

²⁷ Nurmuhammad Andalib. Ashgabat, 1990. 41-bet

sarchashmasi “Avesto” talqinlarida, olam va odamning muqaddas tayanchi islomiyat tasvirlarida ko‘ramiz, ammo, hazrat Navoiy yoki Andalib yanglig‘ allomalar bisotidagi badiiyat sahifalari orqali esa ularni yanada teranroq anglagandek bo‘lamiz.

Andalibo, nola aylab beg‘am et ko‘nglung uyin
Jomi sahbodur dengiz, ko‘z bayram et ko‘nglung uyin
Yetmasun osiyb, hargiz mahkam et ko‘nglung uyin
Ey Navoiy, boda birla hurram et ko‘nglung uyin
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi²⁸.

Ruhiyat olami mumtoz she‘riyatning odil mezoni bo‘lib qolgani haq, ammo, oddiy hayot tarzi ahyon-ahyonda ijodkor fikriga g‘avg‘o solib qolardiki, shoirning romantik tuyg‘ulari xuddi ana shunda ko‘rinadi. Mumtoz ma‘rifatparvar adiblar xilma-xil yo‘nalishda poetik mushohada yuritdilar. Xususan, lirikaning intim oshiqlik tarannumi zaminida ham oriflik falsafasi bir tayanch nuqta sifatida mavjud edi. Oriflik-yetuklik va insoniy kamolot manzillariga intilgan adibning qalb amri irodasi. U ko‘pincha diniy-ma‘rifiy yoki so‘fiyona-ma‘rifiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu holat zamonlar osha adabiy-falsafiy an‘anaga aylangan. Ammo Navoiy yoki forsiyzabon adib Bedil nazmida uning yangicha qirralari kashf etilganini e‘tiborga olish zarur. Albatta, buni chuqur anglamoq uchun Sharq falsafasining mohiyatini anglamoq taqozo etiladi. Alloma adib Maqsud Shayxzoda Navoiy poetik falsafasini ilk bor kashf etgan zukko inson edi. Binobarin, ustoz ko‘rsatmalariga monand odam va olam tasavvurlari g‘azaliyotga ko‘chganida, uning badiiy falsafasi ham, falsafiy badiiyati ham yanada yorqinroq ko‘zga tashlanadi²⁹. Barchaga ma‘lum va manzur g‘azalni eslaylik:

²⁸ Нурмухаммад Андалиб. Шеърлар ва поэмалар. Ашгабат, 1990 й.

²⁹ М.Шайхзода. Асарлар. 6-том. 4-том. Тошкент. 1972 йил.

O`n sekiz ming olam oshubi agar boshindadur
Ne ajab, chun sarvi nozim o`n sekiz yoshindadur

Ushbu misralar o`n sakkiz yoshlik ma`shuqaga keltirilgan ta`rifning ibtidosi, ammo gap shundagina emas. Olam ta`rifi bor bunda, olamga monand inson hayrati haqida so`z ketmog`i kerak, aslida. G`azal tadrijida xuddi ana shu falsafiy-orifona ta`rifga duch kelinadi:

Hayrat etmon husn naqtida ki har hayratki bor,
Barchasi izzat taolo sunni naqqoshindadur.

Olam-ko`z, ko`zda olam bor. Uning sharhini Andalib keltiradi. Navoiyning ushbu g`azaliga bog`lagan muxammasi shu jihatdan e`tiborli:

Bo`lsin ul masnadi husn uzra doyim barqaror,
La`l serobida hargiz ko`rmasin xatti-g`ubor,
Go`yiyo bir guldur, ochilmishdur ul avval bahor,
“Desa bo`lg`ay kim yana ham o`n sekiz yil husni bor,
O`n sekiz yoshinda fitnalar boshindadur”³
Vah, ne ofatdur ki ul goh yig`latar, goh kuldurur,
Nutqudan jon bersa, fatton ko`zlarindan o`ldirar,
Partavi husni quyosh yanglig` jahonni to`ldurar
“O`n sekiz yil dema, yuz sakson yil o`lsa ul turar,
Husn shohi bu balolar kim ko`zu qoshindadur”

³ Нурмухаммад Андалиб. Шеърлар ва поэмалар. Ашгабат, 1990 й.

Ko`rinadiki, Andalib misralarining Navoiyga uyg`un baytlarga aylanishi shunchaki adabiy hodisa emas. Aslida ustoz baytlarining mohiyatini anglamoq, uni chuqurroq tushunmoq uchun poetik izoh zarur ediki, uni shoir Andalib intihosiga yetkaza olgan. Binobarin, partavi husni butun jahonni to`ldirganlikdan (Andalib), o`n sakkiz yoshida muncha fitnalar uning boshida balolar ko`z-u qoshinda (Navoiy). O`zi ne hayratga solmish holatki, goh yig`latar, goh kuldirar, nutqidan shon bersa, fatton ko`zlaridan o`ldirar (Andalib) va hokazo. Bularning boisi bor: oriflik iqtidori Olamning boqiyiligini tan olmoqda, olamning yaralishiga va yaratuvchi naqqoshiga oid ilohiy mo`jizaga yana ishorat bor, hayrat bor bunda:

Vah, ne to`fon turg`uzib olamni buzdi qahri ashk,

Za`faron zar orazin ruh-ruh qilibdur zahri ashk,

Andalibi notavon yanglig` oqizdi nahri ashk,

“To Navoiy to`kdi ul oy furqatidan bahri ashk,

Har qachon boqsang quyosh aksi aning boshindadur.”

Darvoqe, “Quyosh” atalmish yana bir muxammasda Navoiy baytlariga Andalib izohlari orqali yuqoridagi fikrlarni yanada teranroq anglaymiz.

Andalib: Bu quyoshning novaki mujgonidan tirkash to`lar,

Ul quyoshning tobidan olam aro otash to`lar,

Bu quyoshning lablaridan bodai beakash to`lar,

Navoiy: Ul quyoshga el nazar qilsa ko`ziga yosh to`lar,

Bu quyosh borgach nazardan ko`zlarimga to`ldi yosh.

Quyosh timsoli misralarida shunchaki kuydiruvchi otash timsoli emas, balki yaratuvchi cheksiz qudrat ramzi ifodasi, ammo u ustoz va shogird adiblar nazmida hayrat poetikasiga aylangan xolos.

Andalib mushohadalari hamisha ham yuqoridagidek samo donishligi bilan cheklanib kelavermaydi. Unga yer-u zaminga xos, umrguzaronlikka monand hissiyotlar vasfi ham o'zgacha talqinlarda keltirilgan. Odatda shoir shaxsiyati radiflarda ifodalangan g'azallar nihoyatda kam uchraydi. Navoiyda Hofiz Sheroziy ta'rifi keltirilgan Hofiz radifli g'azal bo'lgani yanglig', Andalibda ham o'z taqdir talqiniga ishora etilgan nazm namunasi bor.

Tosh aro aylab vatan, toshbaqa bo'ldi Andalib,

Tuproqa bag'rin bosib, qurbaqa bo'ldi Andalib,

Bo'lmasa qurbaqa, toshbaqa ul nafsi yomon,

Ne uchun bir uyda doyim yakka bo'ldi Andalib.

Do'st bo'lganlar eshitsalar sovuqdan o'lganin,

Kulushib ayturlar, o'lsa yakta bo'ldi Andalib.

Bo'lsa qish urmush g'ovakka, yoz bo'lsa yozilur,

Goh boyqush bo'ldi, gohi hakka bo'ldi Andalib⁴.

Hurfikrlilik yetuk alloma adiblarning, faylasuf-fozillarning hamishalik shiori bo'lgan shoir Andalib ham bu borada sobit qadam ijodkor ekanligi uning yuqoridagi kabi hayotiy misralaridan anglashilib turibdi. Adib o'zini o'zi inkor etib, nafsi yomon kimsa darajasida ta'riflashga tutingan. Bu bejiz emas, hayotda ko'p xor-u zorliklarga, adolatsizliklarga duch kelgan erkin fikrlovchi insonning hajvnamo e'tirofi bu. Xor va zor umr kechirish faqat ijod ahliga xos taqdirmi?

⁴ Андалиб. Лирика. Ашгабат, 1976 й.

Yomon otlig' bo'lish, goh boyqush, gohida hakka bo'lib tanilishga ne hojat va ne zarurat bor edi?

Xullas, ushbu va yana boshqa savollarga shoirning qator g'azal, muxammas va mashhur dostonlari sahifalaridan to'liqroq javob topa olamiz. O'tmish mumtoz adabiyotda romantik ko'tarinki mayllar doimo ustuvor bo'ldi, bu qat'iy an'ana edi, bu an'analardan hazrat Navoiy ham, xalqchil Maxtumduli ham, shirinsuxan Andalib-u alloma Ogahiy ham yiroq emas. Ammo qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar, hurfikrlilik tamoyillari shoirlarni oddiy hayot tarzini ham she'riyatga olib kelishga da'vat etib turgan. Aslida shu bous Andalibning "Chig'ir" ("Chig'iriy") muxammasi kabi qator she'rlari dunyoga kelgan. Bir necha band-beshlikdan iborat ushbu muxammasda Xiva xonligi hududida qadimdan obi hayot manbai bo'lmish Amudaryodan suv chiqarish jarayoni, barcha ekin turlarining yakka-yu yagona oziq manbai bo'lmish suv va sug'orish mashaqqatlari tilga olinadi. Asar to hanuz o'z mazmun-mohiyati bilan e'tiborli bo'lib kelmoqda. Muxammasda shunday misralar borki, dehqonlar ayrim suv tanqis bo'lgan damlarda kalimalar keltirib iltijo etishganigacha ishoratlar haqida so'z boradi:

Xushluq dehqonlarga bir nozanin jonon chig'ir,

Bo'lsa suv vaqti ekishda aylanur chandon chig'ir,

Ikki yuz tilla bahosi bo'lsa ham arzon chig'ir,

Guldurab suvni qo'yarda ustuni larzon chig'ir,

Ashki silab ko'zlaridan oqizur giryon chig'ir.

Shukur alloh Andalib qildi chig'ir javlon erur.

Biz kabi aftodalarning dardina darmon chig'ir⁵.

⁵ Андалиб. Лирика. Ашгабат, 1976 й.

Mansur Halloj, Nasimiy, Mashrab va boshqa hurfikrlilikka intilib boshlarini dor ostiga keltirish allomalarning qismati. Ne-ne rivoyat-u afsonalarga asos bo'ldi. Andalib qalamiga mansub "Risolai Nasimiy" sahifalarini esa har bir o'quvchi yoki tinglovchi o'ta hissiyotlar ostida qabul qiladiki, asar adib poetik salohiyatining yorqin ko'zgusi darajasiga yeta olganligini ko'rsatib turadi.

Hazrat payg'ambar va chahoryorlar hikoyatlari tizimiga kiruvchi "Sa'd Vaqqos" qissasi ham Andalib insonlarga ibrat bo'lg'uvchi namunaviy xislatlarni bayon qildi, Sa'd Vaqqos va uning o'rniga xos sahiylik hamda kambag'al inson uchun boshni fido qilishdek oliyjanoblikni hazrati Aliga xos o'ta nozik g'ururga zid tarzda tarannum eta olganligi e'tiborlidir.

2.2. Andalib mashhur dostonnavis sifatida.

Andalib XVIII asr adabiyotida, asosan, dostonnavis shoir sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan. Andalib qalamiga mansub "Zaynul arab" (Arablar bezagi), "Layli va Majnun", "Said Nasimiy" ("Risolai Nasimiy" deb ham yuritiladi) "Yusuf va Zulayho", "Sa'd Vaqqos", "O'gitnoma", "Bobo Ravshan", "Mirzo Hamdam", "Malikayi Mehrinigor" kabi qiziqarli dostonlari barcha turkiy xalqlar e'tiboriga sazovor bo'lgan. Bu dostonlar Sharq, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari orasida qadimdan mavjud bo'lgan, zamonlar osha takomillashib borgan afsonaviy va tarixiy voqealar shaxslar haqidagi rivoyat va qissalar zaminida yaratilgan.

Dostonlar zukko adibning yetuk salohiyati va qalam qudrati-la bu qissalar yanada ko'rkam, yanada mashxur va manzur bo'lgan. Ularni to hanuz qissaxon xalqlarimiz, xususan, turkman-u o'zbek diyorida, bir zamonlar barcha el-u elatlarni o'zida jam etgan qadim Xorazm vohasida dostonchilikni talqin qilib keladilar. Andalib dostonchilik sohasida ham Alisher Navoiy ijodidan uning dostonchilikdagi an'alaridan bahramand bo'ladi. Andalib ijodida Navoiydan boshqa fors-tojik, ozarbayjon adabiyotining buyuk namoyondalari Sa'diy,

Nizomiy va Fuzuliy kabi siymolar adabiy merosidan ham o`rnak olgan. Shoir o`zining "Layli va Majnun" asarini yaratishda o`zigacha ma`lum bo`lgan "Layli va Majnun"lardan ilhom olgan. Shu tariqa Andalib dostonining yuzaga kelishida buyuk ozarbayjon shoiri Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni asosiy manbalardan biri bo`lgan. Har bir ijodkor ayrim ustozlardan alohida ta`sirlangan, ularning tajribasidan ko`proq tayangan bo`ladi.

Andalib "Layli va Majnun" dostonining yaratilishida Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni asosi manba bo`lib xizmat qilgan bo`lsa-da, boshqa xalqlar adabiyotining dostonchilikdagi ilg`or traditsiyalari ham katta rol o`ynaydi. Biz Andalib dostoni bilan tanishar ekanmiz, uning g`oyaviy mazmunida, umumiy ruhida Navoiy "Layli va Majnun" dostonini ohangini his qilamiz. Andalib dostonni yaratishda Navoiyning ilg`or an`analaridan namuna olganligi sezilib turadi. Andalib o`z asarida Navoiy dostonlaridagi sujet obrazlarga murojaat qilgan bo`lsa ham, dostonni XVIII asr adabiyotiga yaqinlashtiradi. Dostonning sujeti esa nazm va nasr shaklida Navoiy dostoniga qaraganda ancha ixcham yozilgan. Navoiyning "Layli va Majnun"i mumtoz adabiyotida an`anaviy bo`lib qolgan she`riy shakl - masnaviy yo`li bilan yozilgan, she`riy epik dostondir. Andalibning "Layli va Majnun"i esa nasr va nazm shaklida yozilgan bo`lib, unda muxammas, ruboiy, masnaviy kabi she`riy shakllar qo`llanilgan.

Andalib o`z asarlarini turkman xalq og`zaki ijodidagi dostonchilik an`anasiga amal qilib, ya`ni voqealarni nasriy yo`l bilan qahramonlarning voqelarga munosabatlarini esa she`riy uslubda bayon etish usulidan foydalangan. Nasriy parchalardan shoir dostonning syujet chizig`ini rivojlantirsa, she`riy parchalar orqali qahramonning ruhiy kechinmalarini ochib beradi va muomala uslubidan keng foydalanadi. Bu jihatdan Layli va Majnun, Layli bilan uning onasi, Layli bilan Zayd, Majnun va uning otasi o`rtasidagi she`riy savol javoblar diqqatga sazovordir.

Navoiy dostonida Majnun zo'r olim, qobiliyatli shoir, samimiy va sadoqatli oshiq, ajoyib tabiatga ega bo'lgan shaxs sifatida talqin etiladi va ulug'lanadi. Andalib esa Majnunni faqat birmuncha savodxon, haqiqiy muhabbat yo'lida telba bo'lgan kishi sifatida gavdalantiriladi. Navoiy dostonida Ibn Salom maishatparast, ichkilikka qattiq berilgan katta badavlat boy sifatida beriladi.

Layli Ibn Salomga majburan to'y qilib uzatiladi. Niko kechasi Layli o'zini halok etishi o'ylab hanjar tayyorlab qo'yadi. Ibn Salom to'y kechasi ortiqcha maishatga berilib ketadi va ichkilikdan qo'ziydigan kasali tutib yiqiladi, o'ziga kelgach, uyiga qaytadi. Layli esa Majnunga sodiqligicha qolib og'ir holatdan qutiladi.

Andalib dostonida Layli to'y marosimida Ibn Salomni o'ldirish uchun yonida yashirin xanjar saqlaydi. Ibn Salom Layli yoniga kelganda Layli Majnunni chin qalbdan sevishini, u bilan ahd-u paymon qilganini aytadi. Ibn Salom uni so'zlarini tinglamaydi va qo'l tekkizmoqchi bo'lganida Layli xanjar bilan Ibn Salomga tashlanadi. Ibn Salom jon holatda Laylini taloq qilib, uydan bosh olib chiqib ketadi. Andalib Laylini tadbirli, jasoratli qiz sifatida gavdalantiradi.

Navoiy dostonida Navfal sardor mulohazali botir, kishilarga mehribon, g'amxo'r, insonning qadr-qimmatiga yetadigan, uning ezgu orzulárini yuksak qadrlaydigan vafodor do'st, ulug' inson sifatida ko'rsatadi. Andalib dostonida Navfal obrazi ikki yuzlamachi, do'stiga bevafo, makkor, xiylagar, bosqinchi bir shaxs bo'lgan.

Andalib dostonida xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanilgan. Xususan, qahramonlarning portretini chizishda folklorda an'ana bo'lib qolgan sa'j san'atidan foydalanishda Andalib katta mahorat ko'rsatgan. Shoirning poetik mahorati Layli portreti tasvirida yaqqol ko'zga tashlanadi. "Mekdepnin bir tarapida erkek og'lanlar ve bir tarafda giz olganlar oturar erdilar. Bu mekdeode gaye xur-u gulman yig'nagani mandekerdi. Emma ol gizlarni orasinda perizaysipatli, zulplari tar-tar, xalqa-xalqa, algir laginbakildi, moral gozli, sharlin

so`zli, xuyr yuzli ,g`uncha dahan,shirin suhan,murchamiyan,badam gabaq,yupqa dadak , lebleri gagildek dishlari dudek- Leyli giz Qaysga muminbek peyda qildi”.³⁰

Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida bunday poetik tasvir uchramaydi. Andalibning “ Layli va Majnun” dostoni o`zining ijtimoiy mohiyati , g`oyaviy badiiy yuksakligi bilan turkman xalqining eng sevimli dostonlaridan biri bo`lib qoldi . Bu doston asosida “Layli va Majnun” operasi yaratiladi.Andalib nomidagi turkman opera va balet teatri sahnasida qo`yilib, opera ixlosmandlarini xushnud etib kelmoqda.

Andalibning “Risolayi Nasimiy” sahifalarini esa har bir o`quvchi yoki tinglovchi o`ta hissiyotlar ostida qabul qiladiki, asar adib poetik salohiyatining yorqin ko`zgusi darajasiga yeta olganligini ko`rsatib turadi. Andalib doston so`z boshida shunday deydi:

“Emma gadim eyyamda Seyit Nesimi diygan bir buzurgvar otupdur. Arap tilinde erdi.Turki tiline aylantirip, inche gunler mehnat be mushaqqat tartip, nazmeterge bil baglap tarixi- maxi- juma-diessani ayinda , anbirlenji guni yazmanga meshgul buldum.”³¹

Bu dostonidan tashqari “Sa`d Vaqqos” dostonida Andalib insonlarga ibrat bo`lgan namunaviy xislatlarni bayon qiladi Sa`d Vaqqos va uning o`g`liga xos saxiylik hamda kambag`al inson uchun boshni fido qilishdek oliyjanoblikni Hazrati Aliga xos o`ta nozik g`ururga zid tarzda tarannum etadi.Bu doston hazrat Payg`ambar va Chahoriyorlar tizimiga kiradi.”O`g`uznoma” dostonning g`oyaviy mazmuniga inson umrining qadr-qimmatini, uning har bir soniyasi ardoqli ekanligi e`tirof etiladi.

Andalib “Yusuf va Zulayho” dostonida inson ishq va uning tarovati turli holati talqinlari “Qur`oni Karim”dan joy olgan mo`tabar qissaning zamindor

³⁰ N.Gullayev. Leyli hem Mejnun haqda suhbet. Ashgabat .1986-yil. 12-bet.

³¹ “Go`ro`g`li X.G. Nurmuhhammad Andalib.Ashgabat 318-bet

jihatlari bir-bir vasf qilinadi. Andalib g'oyatda go'zal bo'lgan "Yusuf va Zulayho" dostonini zo'r mahorat bilan yaratadi, shuni ham aytib o'tish joizki, o'zbek adabiyotida Yusuf mavzusi va o'sha mavzu asosida qator asarlarning variantlari dunyoviy adabiyotning vujudga kelishi va uning tadrijiy takomillashuviga katta yordam berdi. Andalib dostonida feodalizm muhitida tipik hodisa bo'lgan ijtimoiy tengsizlik, shuhratparastlikni fosh etishga urinadi. Muhabbat masalasida real insoniy tuyg'ular talqin etiladi.

Dostonda go'zal Yusuf hijronida kuyib kul bo'lgan suluv Zulayho yorini ko'rishga intiladi va shunday deydi:

Maqsadim ko'ngil ichra bir ofatijon keldi,
Mujgonlari xanjardek bir qoshi kamon keldi,
Bir necha zamon yig'lab,yorim bu zamon keldi,
Oshkora u nihon yig'lab,chashma to'la qon keldi.

Yusuf ham Zulayhoni vasliga yetishish uchun azob chekadi.

Tutashdi jonimiz, yondi jigir-jigir
Quridi tanda qonimiz Zulayhojon jigir-jigir,
Yusuf qoldi jafosiga ishq uyining balosiga
Rahm etgil gadosiga Zulayhojon jigir-jigir.³²

Bu keltirilgan parchalar orqali Andalib dostonida sof insoniy muhabbatni qalb harorati bilan ulug'laydi. Andalib yaratgan dostonlar turkman-u o'zbek diyorida bir zamonlar barcha el-u elatlarni o'zida jam etgan Qadim Xorazm vohasida keng yoyilib ketdi. Shoir dostonlari zamirida, avvalo, ularda talqin etilgan inson ruhiy olamining serjilo qirralari vasfi barkamollikka da'vatkorlik hissining kuchliligi namoyon bo'ladi.

³² G.Nazarov. Andalib."Yusuf va Zulayho" Ashgabat.1976. 310-bet

XULOSA

Tarix sahifalarini varaqlab ko'rsak, eli eliga dini diniga payvand bo'lgan turkman va o'zbek xalqlari qadim zamonlardan beri birodarlikda yonma-yon yashab kelayotganligini guvohi bo'lamiz. Tolei ham taqdiri ham bir bo'lgan o'zbek va turkmanlar go'yo bir kitobning ikki sahifasi desak yanglishmaymiz. Bu ikki xalq o'tmishda zulmga qarshi birgalikda kurash olib borganlar, ozodlik uchun bo'lgan janglarda birga qatnashganlar. O'zbek va turkman adabiy aloqalari o'zining uzoq tarixiga egadir. Turkiy xalqlarning ko'pgina mushtarak meroslarining yaratilishida turkman va o'zbek bobokalonlari birga qatnashganlar. Turkman va o'zbek xalqlari tashkil topishi bilan bu tillarda taraqqiy qilgan adabiyot muayyan mavzularning izlanishida obrazlar tanlash, uslub va boshqa bir qancha holatlarda bir-birining tajribasidan unumli foydalanganlar. Andalib XIII asr turkman adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri bo'lib, o'zining ajoyib asarlari orqali turkman adabiyoti tarixi bilan birga o'zbek adabiyoti tarixida ham munosib o'ringa ega bo'lgan. Nurmuhammad Andalibning dostonnavis hamda g'azalnavis sifatida ijodiy faoliyatini o'rganish quyidagi xulosalar qilishga imkon beradi.

Andalib XIII asr turkman adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri bo'lib, o'zining ajoyib asarlari orqali turkman adabiyoti tarixi bilan birga o'zbek adabiyoti tarixida ham munosib o'ringa ega bo'lgan.

Qoraqalpoq shoiri Berdaq: "Kitob ko'rdim Andalibdan" deganidek, Nurmuhammad Andalib kitoblari: xususan, dostonlari to hanuz turkman, o'zbek, qoraqalpoq ellari uchun mumtoz saboq manbai bo'lib qolmoqda.

Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostoni bizgacha litografiya holida yetib kelgan bo'lsada, har holda o'sha nusxa vositasida shoir haqidagi mukammal mulohaza yuritish imkonini beradi. Bundan tashqari, shoirning g'azal muxammaslari kiritilgan bayoz va dostonlarni sinchiklab ko'zdan kechirganda Andalib o'z zamonasining ilg'or fikr egalaridan biri sifatida zo'r iste'dodli

shoir ekani yaqqol ko'zga tashlanadi. G'azalnavis va dostonnavis, o'zbek, turkman, arab va fors tillarini chuqur bilimdoni, tarjimon Andalibning adabiy merosi bugun Toshkent, Ashxobod, Dushanbe, va Rossiyadagi Sharqshunoslik institutlarida saqlanmoqda.

Elni sevgan adib bugun yana ellar va elatlar ardog'ida o'zining yangi mo'tabar va hur umrini o'tkazmoqda. Uning yodnomalari mustaqil o'lkalar mafkurasi va ma'naviyatining sarchashmalaridan bolib qolajakdir. O'tmishning ma'lum girdobida inson baxtini kuylagan Andalib kabi xalqning asl farzandlari bizning zamonamizda yana ham hurmatlandi va sharaf topdi.

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti ham, turkman adabiyoti ham uzoq asrlik ilg'or an'analarga, boy tarixga egadir. Ular birinchi navbatda, o'z xalqining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayoti bilan har doim aloqada bo'lib, undan oziqlanganlar, keyingi taraqqiyoti jarayonida o'sha an'analarga tayanganlar.

Turkman va o'zbek o'tmish adabiyoti, o'z milliy an'analari, o'z milliy zaminida, o'z tarixiy sharoitida rivojlanish bilan birga ular o'zaro aloqada, adabiy ta'sir asosida, boshqa milliy adabiyotlar bilan do'stona ijodiy hamkorlikda, bir-birlarining ijodiy tajribalaridan bahramand bo'lgan holda bir-birlarini boyitib, taraqqiy etib kelgan.

O'zbek va turkman adabiyotlari o'rtasidagi adabiy ta'sir adabiyotlar taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham ikki tomonlama bo'lib kelgan va hozir ham shunday davom etmoqda. Navoiy va Ozodiy, Andalib va Furqat, Sayyidiy va Mullanafas kabi shoirlarning ijodi, asarlari qiyosiy tahlili bizni ana shunday xulosaga olib keladi. Shoirlar har doim o'zaro hamkorlikda bo'lgan, bir-birlarining ilg'or an'alarini o'zlari yashagan muhit fonida, davrga moslashtirib davom ettirganlar, rivojlantirganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston”, 1997.
- B.137.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2007.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.
– T.: “O'zbekiston”, 2009
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: “O'zbekiston”, 1998.
- B.23
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.
6. Andalip. Saylanan əsərlər.-Ashgabat,: Turkmendavneshr, 1963.
7. Andalib. Lirikalar. -Ashgabat: Ыым, 1976.
8. Abdullayev. X Xorazm adiblari//O'zbekiston madaniyati. 1966. 23-noyabr.
9. Abdullayev V. Saylanma. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1982.
11. Bekmuradov A. Andalib hem oguz namachilik debi. –Ashgabat: Ilim, 1967.
12. Do'stlik va hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida.// Xorazm haqiqati. 2011.7-may
13. Go'ro'g'li X.G. Nurmuhamet Andalip. –Ashgabat: Ilim.1967
14. Gullayev N. Leyli ham Mejnun haqda suhbet.- Ashgabat : Sharif, 1986
15. Ismoilova G. Xorazm adabiy muhiti. 1994.
16. Mashrab . Tanlangan asarlar.-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti ,1971.
15. Nazarov G. Andalip. “Turkmenistan ” nashriyoti , 1990

17. Nurmuhammed Andalip . “Turkmenistan ” nashriyoti , 1990
18. Qoriyev B. Navoiy va turkman adabiyoti//O`zbek tili va adabiyoti
1968. 3-son
19. Quramboyev K. O`zbek va turkman adabiy aloqalari. – T.:1978
- 20.Yusupov Y. O`t chaqnagan satrlar. –T.,1983
21. Tahirov K . Turkman shoiri Andalib. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.
- Samarqand, 1965
22. Abdullayev V. Saylanma. –T.: “G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va
san`at nashriyoti”, 1982.
23. Anash xalfa. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy
kutubxonasi nashriyoti, 2006.
24. Ali M. Sevgim, sevgilim. She`rlar. Toshkent, 1983. 309-310-betlar.
25. Abdullayev H. O`lmas she`riyat// O`zbekiston madaniyati,1977-yil 12-aprel.
26. Белинский В. Г. Адабий орзулар.-T.:1977.
27. Hasanov H. Sayyoh olimlar. –T.: “O`zbekiston”, 1981.
28. Карриев С.А. Из истории взаимосвязей туркменской литературы и
литератур народов советского востока. АДД. Ашгабад, 1968.
29. Qo`shjonov M. Jayhun jilolari. –T.: “O`zbekiston”, 2008. 30.
- Qurambayev K. O`zbek va turkman adabiy aloqalari. –T.: 1978. 22.
31. Qurambayev K. Maxtumquli –ilhom chashmasi. –T.:“Tafakkur”
nashriyoti, 2011.
32. Sobirov O. Islom shoir Nazar o`g`li. -T.:“Fan”, 1967.
33. Shayhzoda M. Xiyobon. She`rlar.-T.,1967.

34. Salomov G`.Tarjima nazariyasiga kirish. –T.,1978.
35. Xorazm xalq qo`shiglari. –T.: “Fan”, 1965.
36. Yashin K. Tanlangan asarlar. 6 tomlik. 2-tom. –T.: G`G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1971.
37. Zohidov F. Komiljon Otaniyozov. –T.: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1980.
38. O`zbek adabiyoti. 5-jild. –T.: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1968.
- 39.Нурмухаммад Андалиб. Шеърлар ва поэмалар. Ашгабат, 1990
40. Андалиб. Лирика. Ашгабат, 1976 й.
41. К.Қурамбаев. Ўзбек – туркман адабий алоқалари. “Фан”, Т. 1978
42. М.Пирназаров. Р.Йўлдошев. “Сўзда тахаллусим эрди Андалиб”. “Марказий Осиё маданияти” газетаси, № 39, 15 октябрь. 2000 йил.
43. М. Шайхзода. Асарлар. 6-том. 4-том. Тошкент. 1972 йил.